

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

**YANGI O‘ZBEKISTONNING
TARAQQIYOT SATRATEGIYASI VA
JAMIYATNING MA’NAVIY ASOSLARI**

2026

Shoyev I.X.

**tarix fanlari bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent.**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

Barcha yo‘nalishlar uchun

**“YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT
SATRATEGIYASI VA JAMIYATNING MA’NAVIY
ASOSLARI”**

moduli bo‘yicha

O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

Buxoro – 2026

Modulning o'quv-uslubiy majmuasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv reja va dasturga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: **I.X.Shoyev** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchilar: **N.B.Maxmudova** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

D.H.Qodirov – falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

**O'quv-uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy
Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2025 yil "30" dekabrda 5-sonli bayonnoma)**

MUNDARIJA

- I. ISHCHI DASTUR**
- II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL O‘QITISH METODLARI**
- III. NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**
- IV. AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI**
- V. GLOSSARIY**
- VI. ADABIYOTLAR RO‘YXATI**
- VII. NAZORAT SAVOLLARI**

ISHCHI DASTUR

KIRISH

1. Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida” Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” PF-4732-sonli, 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida” PF-5789-sonli, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-sonli, 2020 yil 29 oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-sonli, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-sonli, 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-sonli Farmonlari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4996-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli qarorlari hamda 2025-yil 26-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, shu bilan birga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019-yil 23-sentyabrdagi 797-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Oliy ta’lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 11-iyuldagi 415-sonli qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek, amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: tinglovchilarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari haqidagi bilimlarini takomillashtirish, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy islohotlar bilan yaqindan tanishtirish va sohadagi muammolarni aniqlash, tahlil etish va baholash bilan bog'liq ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Modulning vazifalari: Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan asosiy maqsad va yo'nalishlar to'g'risida chuqur bilim olishni ta'minlash, davlat va jamiyat hayotida, shuningdek yoshlarni tarbiyalashda ma'naviyat va axloq masalalarining ahamiyatini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil etish va baholash, bu borada zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni yanada shakllantirishdan iborat. Xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish. Xotira va qadrlash madaniyatini shakllantirish orqali yoshlarda erkinlik, mustaqillik va Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini rivojlantirish.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

“Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari” modulini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslariga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va ularga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni;

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi oid normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy usul va vositalarini;

- “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbqiq etish istiqbollarini;

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish jarayonida amalga oshirilayotgan islohot va yangiliklarni, bu to'g'risidagi muhim ma'lumotlarni;

- Xalqimiz tarixidagi og'ir va fojiali sahifalarni xolis anglash, millat ravnaqi va ma'naviy taraqqiyoti yo'lida qurbon bo'lgan ziyolilar, ma'rifatparvarlar va jamoat arboblarning hayoti hamda fidoyiligini yoshlar ongiga singdirishni **bilishi** kerak.

Tinglovchi:

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish sohasidagi muammo va masalalarni tahlil etish;

- ta'lim muassasalarida ta'lim sub'ektlarining ma'naviy axloqi va jamiyatning ma'naviy asoslari bilan bog'liq joriy muammolarni tahlil etish va baholash;

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bilan bog'liq ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy innovatsion pedagogika, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga faol tadbiriq etish;

- fanlarni o'qitishda ta'lim berishning modulli tizimidan kengroq foydalanish;

- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyatini tahlil qilish;

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga taalluqli bo'lgan tadqiqotlarni aniqlash va tahlil qilish;

- fanni o'qitishda amaliyot materiallaridan kengroq foydalangan holda tahliliy fikrlash;

- fan doirasida taqdimotlar yaratish, mustaqil va masofaviy ta'limni tashkil etishda video ma'ruzalarni tayyorlash va ulardan foydalanish;

- tarixiy voqealarni tahlil qilish, tarixiy saboqlardan oqilona xulosa chiqarish va ularni shaxsiy faoliyatida qo'llash;

- Qatag'on siyosatining oqibatlarini, inson qadr-qimmati poymol etilgan davr saboqlari, tarixiy adolatni tiklash, xotira va qadrlash madaniyatini shakllantirishning ahamiyati **ko'nikmalariga** ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni sharhlash;

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bilan bog'liq tegishli amaliyot materiallarini o'rganish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlar asosida tegishli xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish;

- mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-siyosiy jihatdan yanada rivojlantirish bilan bog'liq turli mamlakatlarda qabul qilingan rivojlanish dasturlari, yo'l xarita va dasturlar, istiqbolli rejalarga oid xorijiy tajribalarni o'rganish hamda ularni milliy qonunchilik va amaliyot bilan qiyosiy tahlil qila olish;

- Qatag'on qurbonlarini yod etish yosh avlodda erkinlik va mustaqillik qadrini chuqur anglash, Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini kuchaytirish, qonun ustuvorligi va inson huquqlariga hurmat ruhini shakllantirish **malakalariga** ega bo'lishi zarur.

Tinglovchi:

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, shuningdek ta'limning boshqa ustuvor sohalari bo'yicha talabalarni fundamental, shuningdek amaliy kasbiy tayyorgarligini ta'minlash;

- o'quv jarayoni nazariy tayyorgarligini amaliyot bilan uzviy bog'liqligini, talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirishni, yangi bilimlarni mustaqil egallash va

qo'llashni ta'minlaydigan o'qitishning zamonaviy shakl va metodlari, pedagogik, axborot-kommunikatsiya, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish;

- 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi mohiyati bilan tanishish;

- "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlarini amaliyotga tadbiq etish;

- Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi o'quv jarayoniga ilmiy ishlanmalar natijalarini samarali joriy etish, fanni samarali o'qitishga qaratilgan turli metod va usullarini qo'llash;

- Yoshlarni tarixiy saboqlar asosida ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega, g'oyaviy barqaror, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik tuyg'usini his etadigan faol vatanparvar shaxs sifatida yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari yuzasidan muhokama tashkil etish va ulardan samarali foydalanish **kompetensiyalariga** ega bo'lishi lozim

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari moduli ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

O'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar munozara va debat, ilmiy baxs va muhokama shaklida, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash va boshqa interaktiv ta'lim usullarini qo'llagan holda, zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalar asosida tashkil etiladi.

Modul doirasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar nazarda tutilib, bu borada davlat va jamiyat hayotida katta amaliy ish tajribasiga, obro'-e'tibor va nufuzga, yuksak lavozim va martabaga, ilmiy yutuq va unvonlarga ega bo'lgan shaxslar, ilmiy jamoatchilik va akademik soha vakillari, davlat boshqaruvi organlari xodimlari va boshqa mashhur shaxslar bilan adabiy va ma'naviy-ma'rifiy o'chrashuvlar tashkil etiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va jamiyatning ma'naviy asoslari moduli o'quv rejadagi "Oliy ta'limga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar" va "Pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish" va boshqa modullar bilan o'zaro bog'liq hamda uslubiy jihatdan uzviy bog'langan holda pedagoglarning davlat va jamiyat hayotida olib borilayotgan islohotlardan xabardorlik va ularga daxldorlik

tuyg'ularini oshirishga, shuningdek jamiyatning ma'naviy asoslarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari, huquqiy davlat va qonun ustuvorligi, 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi, shuningdek, ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash hamda milliy ma'naviyat va qadriyatlar, Yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlariga doir kasbiy bilim va malakalarga ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

	Mavzu	Jami	Auditoriya o'quv yuklamasi	
			Nazariy	Amaliy
1.	"Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari.	2	2	
2.	Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi.	2	2	
3.	2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi.	2		2
4.	Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash.	2		2
5.	Milliy ma'naviyat va qadriyatlar, Yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari.	2		2
6.	Xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish, Qatag'on qurbonlarini yod etish orqali yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash (sayyor).	2		2
Jami		12	4	8

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, uning mazmun mohiyati va asosiy tamoyillari. (2 coar)

“Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasining mazmuni va mohiyati, uning asosiy tamoyillari. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni va orttirilgan tajriba. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyati. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va aholi turmush darajasini oshirish. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta‘minlash. Iqtisodiy o‘shishning aholi farovonligini oshirish va mahalliy infratuzilmani rivojlantirish bilan o‘zaro bog‘liqligi. Inson kapitaliga e‘tiborni kuchaytirish, bandlikni kengaytirish va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish ustuvor yo‘nalishlari.

2025 yil 26 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi davlat siyosati va islohotlar kun tartibini belgilab beruvchi strategik dastur. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini qayta ko‘rib chiqish davr talabi. Strategiyani takomillashtirish sabablari va ahamiyati, uning xalq hayotiga amaliy ta‘hiri hamda davlat boshqaruvi, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda samaradorlikni oshirishdagi roli. Strategiyani takomillashtirishdagi eng muhim tamoyillar.

2-mavzu: Huquqiy davlat va qonun ustuvorligi. (2 coar)

Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi. Qonun ustuvorligini ta‘minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlar va ularning zaruriyati. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma‘muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslari. Aholi hayot sifatini oshirish va O‘zbekiston pozitsiyalarini yanada mustahkamlash sifatida «inson qadri – mahalla – farovonlikning oshishi» bog‘lanmasi atrofida shakllanganini

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mashg‘ulot: 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish va ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. (2 coar)

2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish. Ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. “Yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘shish

tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbiq etish istiqbollari. «Yashil makon» tashabbusini kengaytirish, iqlim xatarlariga bardoshlilikni oshirish.

2-mashg'ulot: Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash. (2 coar)

Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali. Yangi avlod kadrlarini tayyorlash. Ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglik va yoshlar siyosati. Yoshlarning mamlakat rivojidagi roli. Yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari. Islohotlarning ijtimoiy poydevori mahalla va ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirish.

3-mashg'ulot: Milliy ma'naviyat va qadriyatlar, Yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari. (2 coar)

Tarixiy adolat va xotira madaniyati. Milliy ma'naviyat va qadriyatlar, Yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari. Global jarayonlar va O'zbekistonning o'rnini, O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalari. "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, g'oyaviy barqaror, faol vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalash masalalari. Mamlakat taraqqiyotida mahalla institutining strategik ahamiyati. "Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili" Davlat dasturi. Mahalla jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va iqtisodiy tayanch instituti sifatida. Mahalla davlat va jamiyat o'rtasidagi bog'lovchi ko'priksifatida. Mahalla infratuzilmasini rivojlantirish va iqtisodiy salohiyatini oshirishga masalalari.

4-mashg'ulot: Xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlarni o'rgatish, Qatag'on qurbonlarini yod etish orqali yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash (sayyor)..

Xalqimiz tarixidagi og'ir va fojiali sahifalarni xolis anglash, millat ravnaqi va ma'naviy taraqqiyoti yo'lida qurbon bo'lgan ziyolilar, ma'rifatparvarlar va jamoat arboblarning hayoti hamda fidoyiligini yoshlar ongiga singdirish. Qatag'on siyosatining oqibatlarini, inson qadr-qimmatini poymol etilgan davr saboqlari, tarixiy adolatni tiklash, xotira va qadrlash madaniyatini shakllantirishning ahamiyati. Qatag'on qurbonlarini yod etish yosh avlodda erkinlik va mustaqillik qadrlarini chuqur anglash, Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissinini kuchaytirish, qonun ustuvorligi va inson huquqlariga hurmat ruhini shakllantirish. Yoshlarni tarixiy saboqlar asosida ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega, g'oyaviy barqaror, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik tuyg'usini his etadigan faol vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalash.

Malakaviy attestatsiya

Tinglovchilarning malakaviy attestatsiyasi kasbiy, o'quv-metodik va ilmiy-metodik faoliyati natijalari (elektron portfolioda qayd etilgan ko'rsatkichlari), kursni tamomlagandan keyingi onlayn test sinovlari hamda Attestatsiya komissiyasida bitiruv ishini himoya qilish asosida o'tkaziladi.

Mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish quyidagi shakllarni o'z ichiga oladi: ochiq o'quv mashg'ulotlari va mahorat darslarini tashkil etish; iqtidorli va iste'dodli talabalar bilan ishlash; ilmiy konferensiyalarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; ko'rgazma va tanlovlarda ishtirok etish; ilmiy loyihalarda ishtirok etish; xalqaro (impakt-faktorli) nashrlarda maqolalar e'lon qilish; ixtiro (patent), ratsionalizatorlik takliflari, innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish; monografiya, mualliflik ijodiy ishlar katalogini tayyorlash va nashrdan chiqarish; o'quv adabiyotlari (darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish; falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun himoya qilingan dissertatsiyaga ilmiy rahbarlik qilish.

Pedagog kadrlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbaalardan foydalaniladi.

O'QITISH SHAKLLARI

Quyidagi shakllarda ta'lim berish ko'zda tutilgan:

- binar ma'ruza, bit dars, debatlar, vebinar;
- On-line ma'ruza;
- trening, videotrening;
- kichik ma'ruzalar va suhbatlar (diqqatni jamlash va axborotni qabul qilish qobiliyatini shakllantiradi);
- klaster, sinkveyn (axborot yoki biron-bir tushunchani qisqa bayonini tuzish ko'nikmani shakllantiradi);
- kichik guruhlarda ishlash, bumerang (materialni mantiqan tizimli, muammoli bayon etishni rivojlantiradi);

- blits o'yin, qora quti (aniq muammoli vaziyatni tahlil qilish, kamchiliklar sababini yo'l-yo'lakay aniqlashga yo'naltiriladi).

“Aqliy hujum” metodi – biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o'rgatadi.

“Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilar o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.

2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib qo'yilganda -yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.


3. O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda-mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

“Aqliy hujum” metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.

3. Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida “Aqliy hujum” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi

“Aqliy hujum” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo’yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlarini so‘raladi;
2. Ta’lim oluvchilar savol bo’yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta’lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog‘ozlarga yoki doskaga) to‘planadi;
4. Fikr-g‘oyalar ma’lum belgilar bo’yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi.

“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- natijalar baholanmasligi ta’lim oluvchilarda turli fikr-g‘oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ta’lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- fikr-g‘oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini tekshirib ko‘rish imkoniyati mavjud;
- ta’lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg‘otadi.


“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ta’lim beruvchi tomonidan savolni to‘g‘ri qo‘ya olmaslik;
- ta’lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish.

Ushbu metod qo'llanilganda ta'lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo'lishga, bir-biridan o'rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo'ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo'llanilganda ta'lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo'ladi. Chunki ta'lim beruvchi bir vaqtning o'zida barcha ta'lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo'nalishi aniqlanadi. Mavzu bo'yicha bir-biriga bog'liq bo'lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta'lim oluvchilar guruhlariga 3-6 kishidan bo'linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

4. Ta'lim beruvchi tomonidan aniq ko'rsatmalar beriladi va yo'naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:


- o'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta'lim oluvchilar jalb etiladi;
- o'z-o'zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:

- ba'zi kichik guruhlarda kuchsiz ta'lim oluvchilar bo'lganligi sababli kuchli ta'lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta'lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo'ladi;
- guruhlararo o'zaro salbiy raqobatlar paydo bo'lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o'zaro nizo paydo bo'lishi mumkin.


“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodidir.

“Davra suhbat” metodi qo'llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



Davra stolining tuzilmasi

Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi. Quyida "Davra suhbat" metodining tuzilmasi keltirilgan



"Davra suhbat" metodining tuzilmasi

“Davra suhbatı” metodining bosqichlari quyidagılardan iborat:

1. Mashg‘ulot mavzusi e‘lon qilinadi.
 2. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchılarnı mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi bilan tanishtiradi.
 3. Har bir ta‘lim oluvchıga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda necha ta‘lim oluvchi bo‘lsa, shunchadan “Javoblar varaqalari”ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo‘yiladi. Ta‘lim oluvchi konvertga va “Javoblar varaqalari”ga o‘z ismi-sharifini yozadi.
 4. Ta‘lim oluvchi konvert ustıga mavzu bo‘yicha o‘z savolini yozadi va “Javoblar varaqasi”ga o‘z javobini yozib, konvert ichıga solib qo‘yadi.
 5. Konvertga savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertni soat yo‘nalishi bo‘yicha yonidagi ta‘lim oluvchıga uzatadi.
 6. Konvertni olgan ta‘lim oluvchi konvert ustidagi savolga “Javoblar varaqalari”dan birıga javob yozadi va konvert ichıga solib qo‘yadi hamda yonidagi ta‘lim oluvchıga uzatadi.
 7. Konvert davra stoli bo‘ylab aylanib, yana savol yozgan ta‘lim oluvchining o‘zıga qaytib keladi. Savol yozgan ta‘lim oluvchi konvertdagı “Javoblar varaqalari”ni baholaydi.
 8. Barcha konvertlar yig‘ib olinadi va tahlil qilinadi.
- Ushbu metod orqali ta‘lim oluvchılar berilgan mavzu bo‘yicha o‘zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladılar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta‘lim oluvchılarnı muayyan mavzu bo‘yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda ta‘lim oluvchılar o‘zlari bergan savollarıga guruhdagı boshqa ta‘lim oluvchılar bergan javoblarini baholashlari va ta‘lim beruvchi ham ta‘lim oluvchılarnı ob‘ektiv baholashi mumkin.

“Davra suhbatı” metodining afzalliklari:

- o‘tilgan materialining yaxshi esda qolishıga yordam beradi;
- barcha ta‘lim oluvchılar ishtirok etadılar;
- har bir ta‘lim oluvchi o‘zining baholanishi mas‘uliyatini his etadi;
- o‘z fikrini erkin ifoda etish uchun imkoniyat yaratiladi.

“Davra suhbatı” metodining kamchiliklari:


- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta‘lim beruvchining o‘zi ham rivojlangan fikrlash qobiliyatıga ega bo‘lishi talab etiladi;
- ta‘lim oluvchılarning bilim darajasıga mos va qizıqarli bo‘lgan mavzu tanlash talab etiladi.

“Rolli o‘yin” metodi – ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.

5. O‘yin yakunida ta‘lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta‘lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo‘llash uchun ssenariy t‘lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba‘zi hollarda ta‘lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta‘lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba‘zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta‘lim oluvchilar ushbu rolli o‘yin ko‘rinishidan so‘ng o‘z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

“Rolli o‘yin” metodining afzallik tomonlari:

- o‘quv jarayonida ta‘lim oluvchilarda motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi;
- ta‘lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishni o‘rgatadi;
- ta‘lim oluvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi shakllanadi.

“Rolli o‘yin” metodining kamchilik tomonlari:

- ko‘p vaqt talab etiladi;
- ta‘lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi;
- ta‘lim oluvchilarning o‘yinga tayyorgarligi turlicha bo‘lishi mumkin;
- barcha ta‘lim oluvchilarga rollar taqsimlanmay qolishi mumkin.

“Muammoli vaziyat” metodining tuzilmasi

“Muammoli vaziyat” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta‘lim beruvchi mavzu bo‘yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.

2. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.

3. Ta‘lim beruvchi ta‘lim oluvchilarni kichik guruhlariga ajratadi.

4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o‘rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to‘g‘risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so‘ng bir xil fikrlar jamlanadi.

6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo‘llarini ishlab chiqadilar.

7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo'yicha taqdimot qiladilar va o'z variantlarini taklif etadilar.

8. Barcha taqdimotdan so'ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta'lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo'llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

“Muammoli vaziyat” metodining afzalliklari:

- ta'lim oluvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi;
- ta'lim oluvchilar muammoning sabab, oqibat va yechimlarni topishni o'rganadilar;
- ta'lim oluvchilarning bilim va qobiliyatlarini baholash uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- ta'lim oluvchilar fikr va natijalarni tahlil qilishni o'rganadilar.


“Muammoli vaziyat” metodining kamchiliklari:

- ta'lim oluvchilarda yuqori motivatsiya talab etiladi;
- qo'yilgan muammo ta'lim oluvchilarning bilim darajasiga mos kelishi kerak;
- ko'p vaqt talab etiladi.

“Loyiha” metodi – bu ta'lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo'yicha axborot yig'ish, tadqiqot o'tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta'lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshirish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhli bo'lishi mumkin, lekin har bir loyiha o'quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta'lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta'lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo'lishi va u ta'lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo'llay olishni talab qiladigan topshiriq bo'lishi kerak.

Loyiha o'rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta'lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo'lishi kerak.

Quyidagi chizmada “Loyiha” metodining bosqichlari keltirilgan.



“Loyiha” metodining bosqichlari

“Loyiha” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Professor-o‘qituvchi loyiha ishi bo‘yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta‘lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma‘lumotlar yig‘adilar.

2. Ta‘lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta‘lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.

3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta‘lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo‘yicha qaror qabul qiladilar. Ta‘lim oluvchilar professor-o‘qituvchi bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo‘yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Professor-o‘qituvchi ta‘lim oluvchilar bilan birgalikda “Baholash varaqasi”ni ishlab chiqadi.

4. Ta‘lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta‘lim oluvchilar ish natijalarini o‘zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalarini “Baholash varaqasi”da qayd etiladi. Ta‘lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi:

og'zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko'rinishidagi yozma hisobot.

6. Professor-o'qituvchi va ta'lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O'quv amaliyoti mashg'ulotlarida erishilgan ko'rsatkichlarni me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me'yoriy ko'rsatkichlarga erisha olinmagan bo'lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Professor-o'qituvchi "Loyiha" metodini qo'llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta'minlanishi lozim.

"Loyiha" metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- yakka tartibdagi ish;
- kichik guruhli ish;
- jamoa ishi.

II. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-MA‘RUZA. “YANGI O‘ZBEKISTON” KONSEPSIYASI, UNING MAZMUN MOHIYATI VA ASOSIY TAMOYILLARI. (2 COAT)

“Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasining mazmuni va mohiyati, uning asosiy tamoyillari. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni va orttirilgan tajriba. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyati. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash va aholi turmush darajasini oshirish. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta‘minlash. Iqtisodiy o‘shishning aholi farovonligini oshirish va mahalliy infratuzilmani rivojlantirish bilan o‘zaro bog‘liqligi. Inson kapitaliga e‘tiborni kuchaytirish, bandlikni kengaytirish va davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish ustuvor yo‘nalishlari.

2025 yil 26 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi davlat siyosati va islohotlar kun tartibini belgilab beruvchi strategik dastur. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini qayta ko‘rib chiqish davr talabi. Strategiyaning takomillashtirish sabablari va ahamiyati, uning xalq hayotiga amaliy ta‘siri hamda davlat boshqaruvi, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida samaradorlikni oshirishdagi roli. Strategiyaning takomillashtirishdagi eng muhim tamoyillar.

Tayanch tushunchalar: “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi, barqaror iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash, aholi turmush darajasini oshirish, ta‘lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimi, qulay ekologik sharoitlari, adolatli va zamonaviy davlat, suverenitet va xavfsizligini kafolatli ta‘minlash, Murojaatnoma.

Davlatni yuqori marralar sari yetaklovchi, jamiyatni umumiy maqsad va manfaatlarini o‘zida mujassamlashtirgan alohida strategiyasining mavjud bo‘lishi o‘sha davlat va jamiyat uchun rivojlanish sari qo‘yiladigan dastlabki qadami bo‘lib hisoblanadi. Jahonning rivojlangan mamlakatlari qatoriga kirish, milliy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish kabi umummilliy maqsadlar birinchi navbatda davlatning aniq strategiya va dasturlari orqali amalga oshadi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, taraqqiyotning beqiyos katta imkoniyatlari ochildi. Zero, milliy resurslarni mushtarak maqsadlari yo‘lida safarbar etish, o‘zining rivojlanish yo‘lini o‘zi mustaqil belgilashi kabi imkoniyatlar istiqbolning dastlabki davrlaridan boshlab paydo bo‘ldi. Eng asosiysi, milliy mustaqillik tufayli xalqimiz siyosiy mutelik, qaramlik asoratidan qutildi. Davlat

suvereniteti natijasida jamiyatimizni isloh etish va zamonaviy siyosiy taraqqiyot jarayonlarini amalga oshirish uchun mustahkam zamin va siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy hamda huquqiy asoslarni bosqichma-bosqich barpo qilish uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ldi. O'zbekiston istiqlool tufayli o'z taraqqiyotining mutlaqo yangi bo'lgan tarixiy davriga qadam qo'ydi. Mana shu davrning eng muhim xususiyatlaridan biri shunda ediki, endilikda xalqimiz o'zining tub manfaatlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, rivojlanish strategiyasini belgilab olish va uni mustaqil amalga oshirishdek tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan shart-sharoitlarga erishdi.

Har qanday faoliyatning yakunida kutilgan natijalarni olish uni aniq strategiya asosida olib borishni taqozo etadi. Strategiya tushunchasi yunon tilidan στρατηγία – sarkardaning san'ati iborasidan olingan bo'lib, dastlab harbiy ibora sifatida keng qo'llanilgan. Keyinchalik esa, mazkur ibora turli maqsadlarni o'zida jamlagan va o'sha maqsadlarga erishish yo'lidagi umumiy hatti-harakatlar majmui o'laroq qayd etilgan. Jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari faoliyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, strategiyaning turli nom va iboralar bilan atalganini ko'rish mumkin. Masalan, taraqqiyot modeli, rivojlanish yo'llari, dasturlari, milliy dasturlar va h.k. Dunyo tarixida, rivojlanishning "Yapon modeli", "AQSH modeli", "Shved modeli", "Turk modeli" va boshqa o'zining natijadorligi bilan alohida ajralib turuvchi modellarni ko'rsatish mumkin.

Mustaqillikning dastlabki yillari sobiq ittifoqdan qolgan siyosiy boshqaruvdan butunlay voz kechish va yangi demokratik mezonlarni, zamonaviy bozor munosabatlariga asoslangan taraqqiyot yo'lini (strategiyasini) tanlash asosiy vazifa sifatida belgilab olindi. Mazkur vazifadan kelib chiqib, "Taraqqiyotning o'zbek modeli" ishlab chiqildi. Modelni yaratishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi, taraqqiyot yo'li, turli dasturlar keng o'rganilib, xalqaro tajriba va milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda rivojlanishning eng muhim besh tamoyili belgilandi. Mazkur besh tamoyilning asosiy mazmuni quyidagilardan iborat etib belgilandi:

Birinchi tamoyil, iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi, ya'ni iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ortida qolmasligi kerak, u biror mafkuraga bo'ysundirilishi mumkin emas. Mazkur tamoyilga ko'ra, ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarni mafkuradan xoli qilish zarur;

Ikkinchi tamoyil, amalga oshiriladigan islohotlar davlat tomonidan aniq dasturlar asosida muvofiqlashtirilishi, davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. Davlat islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, o'zgartirishlar siyosatini ishlab chiqishi va uni izchillik bilan o'tkazishi, jtalab etiladi;

Uchinchi tamoyil, qonun, qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiya va

qonunlarni hech istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga og‘ishmay rioya etishi lozim;

To‘rtinchi tamoyil, aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o‘tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta’sirchan choralar ko‘rilishi lozim. Bu bozor munosabatlariga o‘tishda aholining ijtimoiy imkoniyatlari e’tiborga olinishini ta’minlaydi;

Beshinchi tamoyil, bozor iqtisodiyotiga o‘tish obyektiv iqtisodiy qonunlarning talablarini hisobga olgan holda, o‘tmishdagi “inqilobiy sakrashlar”siz, ya’ni evolyutsion yo‘l bilan, puxta o‘ylab, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak. Tarixiy taraqqiyot shundan dalolat beradiki, qabul qilingan milliy dasturlar, loyihalar, strategiya va modellarni muayyan davr o‘tgandan so‘ng yangi davr ehtiyojlaridan kelib chiqib modernizatsiya qilish, takomillashtirish yoki yangi strategiyani yaratish ehtiyoji paydo bo‘ladi. Ana shu ehtiyojdan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilning 7-fevral kungi **“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”**gi Farmoni bilan 2017-2021 yillarda **O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi** qabul qilindi.

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyevning g‘oyasi va tashabbusi bilan joriy etilgan, O‘zbekistonni har tomonlama taraqqiy ettirish, dunyoning ilg‘or demokratik davlatlari qatoridan joy olishi va jahon maydonida munosib o‘rin egallashi asosiy maqsad etib belgilangan mazkur Strategiya mamlakatning yaqin istiqboldagi taraqqiyot yo‘lining bosh ustuvor hujjati sifatida xalqaro jamoatchilik, nufuzli ekspert-mutaxassislar, davlat va jamoat arboblari, siyosatshunoslar tomonidan yuqori baholandi.

Harakatlar strategiyasida O‘zbekistonni rivojlantirishning **beshta ustuvor yo‘nalishi** belgilab berilgan bo‘lib, ularning har birida mamlakatda yangi bosqichdagi demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va samaradorligini ta’minlashga oid aniq chora-tadbirlar o‘z aksini topgan.

1. “Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish” deb nomlangan birinchi yo‘nalishda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlament hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish nazarda tutilgan.

2. “Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish” deb nomlangan ikkinchi yo‘nalishda sud hokimiyatining chinakam

mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish ishlarida samaradorlikni oshirish, sudlarni chinakam “Adolat qo‘rg‘oni”ga aylantirish yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash, sud-huquq tizimida yangi yo‘nalishdagi islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari belgilangan.

3. “Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo‘nalishda milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta‘minlash, valyutani tartibga solish, O‘zbekistonga xorij investitsiyalarini keng jalb qilish, yetakchi xalqaro va chet el moliyaviy institutlari bilan aloqalarni kengaytirish, eksportga mo‘ljallangan tovarlar ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mamlakatning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yuksaltirish, umuman, mamlakat iqtisodini jadal rivojlantirish bo‘yicha tegishli vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari muhim o‘rin tutadi.

4. “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalish aholi, ayniqsa yoshlarning bandligini ta‘minlash, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va salomatligini saqlash, fan, ta‘lim, madaniyat va sport sohasini takomillashtirish, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadlariga qaratilgan.

5. “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta‘minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish” deb nomlangan beshinchi yo‘nalish doirasida esa, davlatning mustaqilligini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga oid chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish, Orol fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek, dunyoning barcha davlatlari, ayniqsa, birinchi navbatda, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro teng manfaatlarga asoslangan do‘stona aloqalar va mustahkam hamkorlikni yo‘lga qo‘yish kabi tinchlikparvar siyosatga tayangan chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan.

Bugungi davrda Yangi O‘zbekiston “Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat” degan muhim g‘oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz Rahbari belgilab bergan bu ulug‘vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda. Harakatlar strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar jamiyat taraqqiyotida o‘zining aniq natijalarini ko‘rsatgandan so‘ng, 2022 yildan boshlab yangi davr chaqiriqlaridan kelib chiqqan holda **“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili asosida keyingi besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi** qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilgan ishlar ko‘lami haqida gapirganda o‘tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini

tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mindan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. Shuningdek, inson huquqlarini ta‘minlash, davlat organlarining hisobdorligi va ochiqqligini kuchaytirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalarining roli, aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta‘minlash bo‘yicha ta‘sirchan choralar ko‘rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta‘lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta‘minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. So‘nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma‘rifiy asoslari yaratildi. Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida **“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga** asosan ishlab chiqilgan quyidagi **yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi** (keyingi o‘rinlarda – Taraqqiyot strategiyasi) va uni **“Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid** davlat dasturi qabul qilindi. Mazkur ikki hujjatning huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.01.2022 yildagi PF-60-son Farmonini keltirish mumkin.

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo‘nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan. 2022 yilda strategiyani amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarga 55 trln so‘m va 11,7 mlrd dollar ajratilishi belgilangan.

Taraqqiyot strategiyasi quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan:

- Birinchi yo‘nalish: inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- Ikkinchi yo‘nalish: O‘zbekistonda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

- Uchinchi yo‘nalish: milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash;
- To‘rtinchi yo‘nalish: adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- Beshinchi yo‘nalish: ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;
- Oltinchi yo‘nalish: milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;
- Yettinchi yo‘nalish: O‘zbekiston xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish;

Harakatlar strategiyasidan farqli o‘laroq, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O‘zbekistonni keyingi 5 yilda rivojlantirishning **7 ta** ustuvor yo‘nalishi doirasida **100 ta** maqsadga erishishga qaratilgan va 2022 yilda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan **398 ta** chora-tadbirni o‘z ichiga olgan. Ushbu maqsadlarga erishish yo‘lida amalga oshiriladigan sa‘y-harakatlar ham aniq. Ular, o‘z navbatida, samaradorlik va natijadorlikni nazorat qilishni anchayin osonlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, rejalashtirilgan islohotlar natijadorligini taraqqiyotning maqsadlariga erishganlik darajasiga muvofiq ravishda baholash tizimi joriy etilmoqda.

Taraqqiyot strategiyasini ishlab chiqishda va qabul qilishda Harakatlar strategiyasiga nisbatan mamlakatimiz aholisining ishtiroki sezilarli darajada ortdi. Bu bilan hujjatning yanada xalqchilligi ta‘minlandi. Bunga, xususan faqatgina uchta asosiy elektron platformaga jamoatchilik muhokamalari yakuni bo‘yicha kelib tushgan **17 mingdan** ziyod fikr-mulohazalar yaqqol dalil bo‘la oladi. Bunda, Harakatlar strategiyasi doirasida boshlangan xalq bilan muloqot tizimi muhim rol o‘ynaganini alohida e‘tirof etish joiz. Chunki, aynan Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ishlarni amalga oshirish jarayonida davlat organlarining aholi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqoti yo‘lga qo‘yildi, yildan-yilga shaffoflik ortib bordi. Bu esa o‘z-o‘zidan aholining davlat organlariga nisbatan munosabatini tubdan o‘zgartirdi, uning faolligi, islohotlarga ishonchi va daxldorligini kuchaytirdi. Eng muhimi, fuqarolar tomonidan davlat organlari oldiga masala qo‘yish imkoniyatlari yanada kengaydi.

Strategiyada yaqin va o‘rta istiqbolda mamlakatimizning rivojlanish tendensiyalari qanday bo‘lishi, bu boradagi ustuvor vazifalar belgilangan. «**Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari**» degan tamoyil asosida islohotlarning uzviyligi va davomiyligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgan. Jumladan, Harakatlar strategiyasi har bir sohada ulkan islohotlarni amalga oshirish bilan boshlangan bo‘lsa, Taraqqiyot strategiyasida esa mazkur islohotlar uzviyligi ta‘minlangani holda davom ettiriladi, to‘plangan katta tajriba va imkoniyatlar asosida islohotlar yanada qat‘iylilik va jadallik bilan takomillashtirilib boriladi. Bunda natijadorlik koeffitsiyenti ortib, olib boriladigan islohotlarning samaradorligi ortadi.

Taraqqiyot strategiyasini ijro qilish bo'yicha mexanizm takomillashtirildi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning **«2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»**gi farmoni bilan strategiyani amalga oshirish bo'yicha milliy komissiya tarkibi tasdiqlandi. E'tiborli jihati shundaki, ushbu komissiya tarkibi mamlakatdagi davlat organlari mas'ullari va jamoatchilik faollaridan tarkib topgan. Komissiya a'zolari Taraqqiyot strategiyasining bevosita amalga oshirilishi va tegishli mutassaddilar ustidan bu borada nazoratning ta'minlanishiga mas'ul etib belgilangan.

Taraqqiyot strategiyasining har bir bosqichini amalga oshirishda jamoatchilik nazorati ishtirokining kuchaytirilayotgani ham e'tiborga molik. Tabiiyki, bunday nazoratni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani esa alohida diqqatga sazovor. Turli jabhalaru sohalarning raqamlashtirilishi, shuningdek, elektron platformalar tashkil qilinishining rejalashtirilishi, eng avvalo ushbu tashkilotlarning o'z faoliyatida samaradorlikka erishishi uchun xizmat qilsa, boshqa tomondan aholining davlat organlari faoliyatidan qoniqish hissini shakllantirishga turtki bo'ladi. Shuningdek, ushbu shaffoflik va ochiqlik jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirish imkonini ham beradi. Undan tashqari, barcha darajadagi davlat organlarining **xalq vakillari**– deputatlar oldidagi hisobdorligi ortayotganligi ham davlat organlari ustidan nazoratning kuchayishi, mutassaddilarning o'z vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishlariga xizmat qiladi.

Donishmanlar aytganidek hayot bir joyda to'xtab turmaydi. Qabul qilingan har qanday qonun, qaror va boshqa meyoriy hujjatlar vaqt o'tib o'z ta'sirchanligini kamaytirishi, davrning yangi chaqiriqlariga mos kelmasligi mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, **2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston - 2030» strategiyasi to'g'risida»gi 158-son Farmoni bugungi davr chaqiriqlaridan kelib chiqib, hamda kelajak rejalarni belgilash uchun yangi huquqiy vosita sifatida e'tirof etish va qabul qilish mumkin.**

Farmon bilan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan tajriba va jamoatchilik muhokamasi natijalari asosida ishlab chiqilgan «O'zbekiston – 2030» strategiyasi tasdiqlandi. Hujjatda quyidagi asosiy g'oyalar aks ettirilgan:

- barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish;
- aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish;
- aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish;
- xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish;
- mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash.

«O‘zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan barcha maqsadlarga erishish, shuningdek, Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish ta‘minlanadi.

Zamonaviy davlat boshqaruvi tizimida davlat rahbarining parlament va xalqqa murojaat qilishi – siyosiy ritorikadan ancha keng mazmunga ega bo‘lgan **strategik hujjat** hisoblanadi. U bir vaqtning o‘zida hisobot, dastur, prognoz va mafkuraviy yo‘naltiruvchi vazifalarni bajaradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasi ham ana shunday kompleks siyosiy hujjat sifatida namoyon bo‘ldi.

Murojaatnoma – davlatning o‘z fuqarolari oldida ochiq hisobdorligini ta‘minlaydigan, strategik maqsadlar va amaliy vazifalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beruvchi muhim siyosiy instrumentdir. U orqali davlat rahbari nafaqat o‘tgan yil natijalarini sarhisob qiladi, balki kelgusi bosqichda jamiyat oldida turgan asosiy vazifalarni konseptual jihatdan belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning murojaati **“Bugun Oliy Majlisga va ko‘pmillatli xalqimizga kelgusi yil uchun Murojaatnomani taqdim etar ekanman...”** degan so‘zlar bilan boshlanadi. Bu ibora Murojaatnomaning asosiy yo‘nalishi – **kelgusi taraqqiyot strategiyasini belgilash** ekanini ko‘rsatadi.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot falsafasi: natijaga yo‘naltirilgan davlat siyosati. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar falsafasi “deklaratsiya”dan “amaliy natija”ga o‘tish bilan xarakterlanadi. Prezidentimiz buni Murojaatnomada **“Biz islohotlarni aniq amaliy natijaga aylantirishni o‘rgandik”** deya aniq va ochiq ifodalaydi. Bu fikr davlat boshqaruvida **pragmatik yondashuv, institutsional samaradorlik va natijadorlikka asoslangan siyosat** tamoyillari ustuvor bo‘lib borayotganini anglatadi. Ya’ni, islohotlar endilikda g‘oya sifatida emas, balki har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson hayotida seziladigan o‘zgarish sifatida baholanmoqda. Bu natijalar shahar va qishloqlar qiyofasining o‘zgarishi, infratuzilmaning modernizatsiya qilinishi, raqamli xizmatlar rivoji, yangi ish o‘rinlari va ijtimoiy himoya tizimida yaqqol namoyon bo‘lmoqda.

Global beqarorlik sharoitida milliy barqarorlik. Murojaatnomaning muhim konseptual jihatlaridan biri – O‘zbekiston taraqqiyotining **global kontekstda tahlil qilinishidir**. Prezidentimiz nutqida dunyoda kechayotgan murakkab jarayonlarga alohida to‘xtalib o‘tadi: **“Dunyoda sodir bo‘layotgan va yaqin-yaqingacha hech kim tasavvur qila olmagan o‘zgarishlar sharoitida o‘ta murakkab yilni yakunlayapmiz”**. Bu yerda gap geosiyosiy qarama-qarshiliklar, global savdo zanjirlarining uzilishi, xavfsizlik tahdidlari, inflyatsion bosim va moliyaviy noaniqliklar haqida bormoqda. Shunday murakkab muhitda milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishi – davlat siyosati samaradorligining asosiy indikatori hisoblanadi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, barcha qiyinchiliklarga qaramasdan, O'zbekiston iqtisodiyoti **ishonchli va barqaror o'sishda davom etdi**. Bu holat davlatning makroiqtisodiy barqarorlik siyosati, diversifikatsiyalangan iqtisodiy model hamda ochiq tashqi iqtisodiy aloqalarga asoslangan strategiyasi to'g'ri ekanini ko'rsatadi.

Iqtisodiy o'sish: tarixiy ko'rsatkichlar va ularning siyosiy ahamiyati. Murojaatnomada keltirilgan iqtisodiy raqamlar O'zbekiston taraqqiyotida **sifat jihatdan yangi bosqich** boshlanganini ko'rsatadi. Xususan, Prezidentimiz quyidagicha ta'kidlaydi: **"Bu yil tariximizda birinchi marta yalpi ichki mahsulotimiz 145 milliard dollardan oshdi"**. Bu raqam nafaqat iqtisodiy o'sish, balki davlatning strategik rejalashtirish qobiliyati oshganini ham anglatadi. Chunki, murojaatda ta'kidlanganidek, bor-yo'g'i to'qqiz yil oldin YaIMni 100 milliard dollarga yetkazish katta marra sifatida baholangan edi. Shuningdek, eksport hajmi **33,4 milliard dollarga** yetgan bo'lsa, oltin-valyuta zaxiralari **60 milliard dollardan oshdi** hamda xorijiy investitsiyalar hajmi **43,1 milliard dollarni** tashkil qildi. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiyotda **ichki va tashqi ishonch** mustahkamlanganini anglatadi.

Suveren reyting va xalqaro ishonch omillari. Prezidentimiz Murojaatnomada xalqaro reytinglar masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, yetakchi xalqaro reyting agentliklari O'zbekistonning suveren reytingini **"BB–"dan "BB" darajasiga** ko'targani ta'kidlandi.

Ilmiy nuqtai nazardan, bu holat quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- davlat moliyaviy intizomining yaxshilanishi;
- qarz yukini boshqarishda shaffoflik;
- institutsional islohotlarning barqarorligi.

Prezidentimiz buning amaliy foydasini ham aniq ko'rsatadi: **"Bu o'zgarish tufayli tashqi qarz xarajati yiliga kamida 300 million dollarga kamayadi"**.

Davlat siyosatida "inson manfaati" konsepsiyasi. Prezidentimiz Murojaatnomada iqtisodiy o'sishni mustaqil maqsad sifatida emas, balki **inson farovonligiga xizmat qiluvchi vosita** sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv zamonaviy ijtimoiy davlat nazariyasiga to'liq mos keladi. Ya'ni, Murojaatda shunday deyiladi: **"Islohotlarimiz samarasini har bir mahalla, har bir xonadon va har bir inson kundalik hayotida his qilmoqda"**. Bu fikr davlat siyosatida **inson markaziy o'rinda** ekanini anglatadi. Ya'ni, iqtisodiy o'sish, infratuzilma, investitsiya – bularning barchasi pirovardida inson hayoti sifatini oshirishga xizmat qilishi lozim.

Ijtimoiy davlat konsepsiyasi va kambag'allikni qisqartirish siyosati. Zamonaviy siyosiy nazariyada "ijtimoiy davlat" tushunchasi faqatgina qayta taqsimlash yoki ijtimoiy yordam mexanizmlari bilan cheklanmaydi. U, eng avvalo, insonni iqtisodiy o'sishning markaziga qo'yuvchi, uning munosib hayot kechirishini

kafolatlaydigan institutsional tizimni anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yilgi Murojaatnomasida aynan shu yondashuv davlat siyosatida yetakchi g‘oya sifatida ilgari surilganini ko‘ramiz.

Prezidentimiz nutqida kambag‘allik masalasi alohida strategik ahamiyatga ega bo‘lgan muammo sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu borada u quyidagicha ta’kidlaydi: **“Biz kambag‘allikni qisqartirish masalasini umummilliy harakatga aylantirdik”**. Ushbu fikr kambag‘allikka qarshi kurash davlatning yakka o‘zi amalga oshiradigan vazifa emas, balki jamiyatning barcha qatlamlari – mahalla, tadbirkorlik sub’ektlari, nodavlat sektor va fuqarolarning hamkorligini talab qiluvchi keng ko‘lamli jarayon ekanini anglatadi.

Kambag‘allikni qisqartirishda institutsional yondashuv. Murojaatnomada keltirilgan raqamlar ijtimoiy siyosatda tizimli burilish yuz berganini ko‘rsatadi. Xususan, so‘nggi yillarda **8,5 milliondan ortiq aholi kambag‘allikdan chiqarilib**, kambag‘allik darajasi **8,9 foizdan 5,8 foizga** tushirilgan va 1 ming 435 ta mahalla “kambag‘allikdan xoli” hududga aylangan. Ilmiy tahlil nuqtai nazaridan, bu natijalar quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- ijtimoiy yordamning adresli tizimga o‘tkazilishi;
- “mahallabay” ishlash tamoyilining joriy qilinishi;
- kambag‘allikni faqat daromad yetishmasligi emas, balki institutsional cheklovlar natijasi sifatida tushunish.

Prezidentimiz bu masalada muhim konseptual nuqtani belgilaydi: **“Asosiy maqsadimiz – odamlarimizni doimiy daromadli qilish”**. Bu yerda ijtimoiy siyosatning passiv (nafaqa, yordam) modeli emas, balki **faol ijtimoiy davlat** modeli tanlanganini ko‘ramiz.

Bandlik siyosati va mehnat bozori transformatsiyasi. Kambag‘allikni qisqartirishning eng samarali yo‘li – aholini ish bilan ta’minlash hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, Murojaatnomada bandlik siyosatiga alohida e’tibor qaratilgan. Prezidentimizning ma’lum qilishicha, 2025 yilda **5 million aholi daromadli bo‘lib**, ishsizlik darajasi **5,5 foizdan 4,9 foizga** pasaygan. Bu ko‘rsatkichlar mehnat bozorida institutsional o‘zgarishlar amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Xususan, “mahallada sanoat va xizmat” loyihalari, mikroloyihalarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlikka imtiyozli kreditlar ajratish orqali aholi o‘z yashash hududida ish topish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu jarayonni **detsentralizatsiya qilingan bandlik siyosati** deb atash mumkin.

Mahalla instituti – milliy boshqaruv modeli sifatida. Murojaatnomaning eng muhim va o‘ziga xos qismlaridan biri – mahalla institutiga berilgan strategik ahamiyatdir. Prezidentimiz mahallani nafaqat ijtimoiy tuzilma, balki milliy davlatchilik an’anasiga asoslangan **o‘zini o‘zi boshqarish instituti** sifatida ta’riflaydi: **“Mahalla tinch va ahil bo‘lsa, jamiyatimiz tinch va hamjihat**

bo‘ladi”. Bu fikr mahallaning ijtimoiy kapital yaratishdagi o‘rnini ko‘rsatadi. Ijtimoiy kapital nazariyasiga ko‘ra, ishonch, hamjihatlik va o‘zaro yordam jamiyatning barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Murojaatnomada **2026 yilni “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”** deb nomlash taklif etildi. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2026 yilga berilgan nom ramziy emas, balki aniq dasturiy mazmunga ega. Bu yil doirasida mahalla infratuzilmasi uchun **20 trillion so‘m**, og‘ir sharoitli 33 tuman va 330 mahalla uchun **8,5 trillion so‘m** hamda mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishga qaratilgan yangi moliyaviy mexanizmlar joriy etilishi ta’kidlandi. Bunday choralar mahalliy boshqaruvni kuchaytirish, fiskal detsentralizatsiya va aholining qaror qabul qilish jarayonidagi ishtirokini oshirishga xizmat qiladi.

Inson kapitali: ta’lim va yoshlar siyosati. Prezidentimiz Murojaatnomada inson kapitali masalasi alohida strategik resurs sifatida talqin qilinadi. Ta’lim, ilm-fan va yoshlar siyosati davlat taraqqiyotining uzoq muddatli asosi ekani ta’kidlanadi. Jumladan, 2025 yilda:

- o‘quvchi va talabalar xalqaro fan olimpiadalarida **51 ta oltin, 101 ta kumush, 126 ta bronza medalni** qo‘lga kiritdi;
- O‘zbekiston ilk bor futbol bo‘yicha Jahon chempionatiga yo‘llanma oldi;
- shaxmat va parasport sohasida rekord natijalar qayd etildi. Bu misollar inson kapitaliga qilingan investitsiyaning samarasini ko‘rsatadi.

Yoshlar siyosati va milliy kelajak. Prezidentimiz nutqida yoshlar mamlakat kelajagining asosiy tayanchi sifatida ko‘rsatiladi. Yoshlar uchun ta’lim, kasb-hunar, sport va tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. **“Yoshlarimizga qarab, ular erishayotgan yutuqlarni ko‘rib, ko‘ksimiz tog‘dek ko‘tariladi”.** Ilmiy nuqtai nazardan, bu demografik dividenddan samarali foydalanish siyosati sifatida baholanadi.

Texnologik va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish – strategik zarurat. XXI asr global raqobat sharoitida davlatlar o‘rtasidagi farq, eng avvalo, tabiiy resurslar yoki geografik joylashuv bilan emas, balki **texnologik salohiyat, innovatsiya darajasi va inson kapitali sifati** bilan belgilanmoqda. Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yilgi Murojaatnomasida iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘tish modeliga o‘tkazish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgani tasodifiy emas.

Prezidentimiz bu masalani qat’iy tarzda quyidagicha ifoda etadi: **“Hozirgi global iqtisodiyotda raqobatga chidamli bo‘lish uchun malakali mutaxassislar va zamonaviy texnologiyalar hal qiluvchi ahamiyatga ega”.** Ilmiy nuqtai nazardan, bu yondashuv **endogen iqtisodiy o‘tish nazariyasiga** to‘liq mos keladi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, iqtisodiy o‘tishning asosiy manbai – innovatsiya, bilim va texnologiyadir.

Iqtisodiyotda qo‘shilgan qiymat zanjirini kengaytirish. Prezident Murojaatnomada qo‘shilgan qiymat yaratish masalasiga alohida e‘tibor qaratdi. Ushbu yo‘nalishdagi islohotlar quyidagi maqsadlarga qaratilgan:

- yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlarini rivojlantirish;
- xomashyo eksportidan tayyor mahsulot eksportiga o‘tish;
- mehnat unumdorligini oshirish.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek: **“Qaerda yangi texnologiya va yuqori malakali kasb egalari bo‘lsa, o‘sha joyda o‘shish bo‘ladi”**. Murojaatnomada keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, sanoatda energiya samaradorligini oshirish hisobiga birgina yilda **1 milliard dollarlik qo‘shimcha qiymat** yaratilgan. Bu raqam texnologik modernizatsiya iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlashini isbotlaydi.

Investitsiya siyosati: sifatga yo‘naltirilgan yondashuv. Prezidentimiz o‘z nutqida investitsiya siyosatida miqdor emas, **sifat ustuvor** bo‘lishi kerakligini alohida ta’kidladi. Xususan, u quyidagicha bayon qiladi: **“Har bir dollar investitsiya ilg‘or texnologiya, yangi kompetensiya va eksport uchun xizmat qilishi kerak”**. Bu fikr investitsiya siyosatida strategik saralash tamoyili joriy etilayotganini ko‘rsatadi. Ilmiy jihatdan aytganda, bu yondashuv “investitsiya sifati indeksi”ni oshirishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Murojaatnomada ma’lum qilishicha, kelgusi yillarda **180 milliard dollar** xorijiy investitsiya jalb etish hamda **bir million yuqori daromadli ish o‘rni** yaratish rejalashtirilgan. **Raqamli transformatsiya va sun‘iy intellekt siyosati.** Murojaatnomaning eng muhim yo‘nalishlaridan biri – raqamli iqtisodiyot va sun‘iy intellekt masalasidir. Prezidentimiz bu sohani kelgusi taraqqiyotning “drayveri” sifatida baholaydi. Jumladan, 2025-yilda AT xizmatlari eksporti ilk bor **1 milliard dollarga** yetgan va startaplarga **270 million dollar** xorijiy investitsiya jalb etilgan.

Bu borada Prezidentimiz quyidagi muhim tashabbuslarni ilgari surdi:

- sun‘iy intellekt laboratoriyalari tashkil etish;
- data-markazlar va superkompyuterlar qurish;
- fintex va raqamli startaplar ekotizimini rivojlantirish. Bu choralar **raqamli davlat** konsepsiyasini amaliyotga joriy etishni anglatadi.

Ilm-fan, innovatsiya va milliy ilmiy maktablar. Prezidentimiz nutqida ilm-fan va innovatsiya alohida strategik resurs sifatida ko‘rsatildi. Murojaatnomada ilk bor O‘zbekistonda sun‘iy yo‘ldosh uchirish, milliy kosmonavt tayyorlash va Samarqandda Xalqaro astronavtika kongressini o‘tkazish rejalashtirilayotgani e‘lon qilindi. Bu tashabbuslar mamlakatni faqat texnologiya iste‘molchisi emas, balki **texnologiya ishlab chiqaruvchi davlatga** aylantirish maqsadini ko‘zlaydi.

Tashqi siyosat: ko‘p vektorli hamkorlik va xalqaro nufuz. Murojaatnomada tashqi siyosatga bag‘ishlangan qism O‘zbekistonning xalqaro maydondagi faolligi va

nufuzi oshganini ko'rsatadi. Prezidentimiz nutqida **“Biz Sharq va G'arb, Shimol va Janub o'rtasida hamkorlik ko'priklarini qurishda davom etamiz”** deya ta'kidlab o'tadi. 2025-yilda O'zbekiston:

- “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” sammiti;
- “Markaziy Osiyo – Yaponiya” uchrashuvi;
- Markaziy Osiyo – AQSh formati kabi yirik xalqaro muloqot maydonlariga mezbonlik qildi. Bu holat O'zbekistonning mintaqaviy yetakchi va konstruktiv diplomatik markaz sifatidagi o'rni mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

2026-yil ustuvor yo'nalishlari: institutsional transformatsiya. Prezidentimiz Murojaatnomada 2026-yil uchun aniq ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi. Ular quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga Yangi O'zbekiston qiyofasini olib kirish;
- iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o'sish modeliga o'tkazish;
- ichki bozor va talabni rag'batlantirish;
- mehnat bozori va kasblar transformatsiyasi;
- ekologik muvozanatni ta'minlash, “yashil” energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanish;
- zamonaviy davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimi islohoti.

Bu ustuvor yo'nalishlar davlat siyosatida **tizimli va uzviy yondashuv** mavjudligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga 2025 yilgi Murojaatnomasi quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi:

- Murojaatnoma – strategik boshqaruv hujjati sifatida davlat siyosatida markaziy o'rin tutadi;
- Yangi O'zbekistonda natijador, pragmatik va insonga yo'naltirilgan davlat modeli shakllanmoqda;
- ijtimoiy davlat, mahalla instituti va inson kapitali o'zaro bog'liq tizim sifatida rivojlanmoqda;
- texnologik va innovatsion taraqqiyot milliy iqtisodiy strategiyaning o'zagiga aylangan;
- O'zbekiston xalqaro munosabatlarda konstruktiv, ochiq va ko'p vektorli siyosat yuritmoqda.

Nazorat savollari:

1. “Yangi O'zbekiston” konsepsiyasining mazmuni va mohiyati, uning asosiy tamoyillarini tushuntirib bering.

2. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayoni va orttirilgan tajribani bayon eting.

3. “O‘zbekiston-2030” strategiyasining ahamiyatini izohlab bering.

4. Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o‘lishni ta’minlash va aholi turmush darajasini oshirishni tushuntirib bering.

5. Aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilishni bayon eting.

6. Aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish va xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etishni izohlab bering.

7. Mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta’minlashni tushuntirib bering.

2-MA’RUZA. HUQUQIY DAVLAT VA QONUN USTUVORLIGI. (2 COAT)

Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishi. Qonun ustuvorligini ta’minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o‘zgarishlar va ularning zaruriyati. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari. Jamiyatning iqtisodiy negizlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma’muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalari. Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslari. Aholi hayot sifatini oshirish va O‘zbekiston pozitsiyalarini yanada mustahkamlash sifatida «inson qadri – mahalla – farovonlikning oshishi» bog‘lanmasi atrofida shakllanganligi.

Tayanch tushunchalar: siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimi, qonun ustuvorligi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jamiyatning iqtisodiy negizlari, davlat hokimiyatining tashkil etilishi.

Bugun dunyoning barcha mintaqalarida globallashtirish jarayoni ijtimoiy-madaniy hodisalarga o‘zining turlicha ta’sirini o‘tkazmoqda. Bunday ta’sirning bir xil emasligi dunyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, axborot, ma’naviy salohiyatlari va geosiyosiy omillar bilan chambarchas bog‘liq. Olamda yuz berayotgan bu kabi shiddatli jarayonlarning avj olishi sharoitida milliy ma’naviyatga qaratilgan tahdidlar tobora oshib bormoqda. Buning asosiy sababi ma’naviyatning millat ongi, dunyoqarashi va mentalitetini tashkil etish bilan bog‘liqdir. Ularni turli xil zamonaviy usul va vositalar yordamida o‘zgartirish orqali millatni, mamlakatni va uning barcha boyligini qo‘lga kiritish mumkin bo‘ladi. Ma’naviyatning inqirozga yuz tutishi, albatta, mamlakatning taraqqiyotdan orqada qolishiga, boshqa davlatlarning izmida bo‘lishiga olib keladi.

Ma'naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, iste'dodi qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e'tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning bir-biri bilan uzviy bog'langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan mushtarak tizimidir.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ma'naviyat, yoshlar tarbiyasi, barkamol avlod, komil insonni shakllantirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari qilib belgilandi. Chunki har qanday davlatning, har qanday jamiyatning kelajagi, uning taraqqiyoti, jahonda o'z o'rniga ega bo'lishi masalalari uning yoshlarining bilimi, salohiyati, dunyoqarashi, ma'naviyatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ma'naviyatning mohiyati va amaliy ahamiyati, ayniqsa, jamiyat taraqqiyotining burilish davrlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Davlatning kuchi va qudratini ma'naviy jihatdan barkamol bo'lgan kishilargina belgilaydi. Ma'naviyatga e'tibor bermagan mamlakatda katta iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy bo'hronlar sodir bo'ladi. Jamiyat hayotidagi barcha bo'hronlarning tomiri ham kishilarning ma'naviy kamoloti darajasi va holatiga borib taqaladi. Xalqi ma'naviy jihatdan qashshoq bo'lgan va u oqilona boshqarilmagan mamlakat, tabiiy boyliklari behisob bo'lsa ham, hech qachon buyuk davlat bo'la olmaydi. Bu fikrlar to'g'riligi insoniyat jamiyati taraqqiyotining har qadamida to'la isbotlanadi. Shu sababli ham hozirgi kunda jahondagi rivojlangan mamlakatlar, mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tib olgan yosh davlatlar jamiyat a'zolarining ma'naviy kamoloti masalasiga birinchi darajali ahamiyat berib kelmoqdalar.

O'z taqdiri va kelajagi uchun qayg'uruvchi har qanday jamiyat, har qanday mamlakat yoshlarga munosabat masalasida ularning hayotini ma'naviy boy, sermazmun qilish, har tomonlama yetuk, barkamol inson bo'lib yetishishidan manfaatdordir. Shuning uchun yoshlarning jismoniy, ma'naviy va intellektual qobiliyatlarini namoyon qila olishlari uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Yoshlarimizning siyosiy ongli, ma'naviy barkamol, sharqona odob-axloqli, faol, ma'suliyatli, ona-Vatanga sadoqatli bo'lib yetishishi jamiyat, davlat taqdiri uchun g'oyat muhimdir.

Inson hayoti tajribasi, faoliyati, bilimi, ilmi, odob-axloqi, hatti-harakati bilan o'zining ma'naviy olamini boyitib boradi. Aqlan va axloqan boyib borgan sari o'z oldiga oliyjanob vazifalarni qo'yib, unga erishish uchun harakat qiladi. Harakat esa ma'naviy zaminni talab qiladi. Ma'naviy kamolot jarayonida inson xarakteri toblanadi.

Ma'naviy kamolot o'tmishdan qolgan meros va qadriyatlarni o'rganish, rivojlantirish, yangi bosqichga ko'tarish orqali amalga oshadi. Bir davrga, millatga, dinga, mafkuraga xos bo'lgan ma'naviyat mezonlarini mutlaqlashtirish, ularga ko'r-ko'rona e'tiqod qilish ham shaxs va jamiyat kamoloti imkoniyatlarini cheklab

qo'yadi. Ma'naviy kamolot asosida adolatga tayanish yotadi. Adolatli jamiyatgina komil insonni tarbiyalashga imkon yaratadi. Komil insonlar esa jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy omildir. Bu avvalo va asosan komil inson darajasiga ko'tarilishi lozim bo'lgan yoshlarga taalluqlidir.

Axloqan barkamol, bilimli va tajribali, ilm asoslarini chuqur egallagan, adolatparvarlik, insonparvarlik e'tiqodi kuchli rahbar shaxslar yuksak ma'naviy fazilatlarning sohibi bo'la oladilar. Bu fazilatlarning barchasi birgalashib, jamiyatning dunyoqarashi, e'tiqodi, xalqning milliy ongi shakllanishiga, mustahkamlanib, rivojlanishiga olib keladi. Ma'naviy kamolot, uning barcha qirralari o'zaro bog'liqligi, bir-biriga bevosita yoki bilvosita ta'sir etib turishi asosida davom etadi. Inson, jumladan yoshlar kamolotini ma'naviyatning yuqoridagi tomonlaridan birortasisiz to'liq tasavvur etish mumkin emas. Uning mohiyati ham shu sifatlarining mushtarak birligi asosida shakllanadi va kamol topib boradi.

Ma'naviy kamolot jamiyat taraqqiyotining inson faoliyati, ongi bilan bog'liq bo'lgan subyektiv omillari tobora kengayib, chuqurlashib, rivojlanib borishini bildiradi. Talaba-yoshlarimizning kelajakda o'z sohasining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishlarida, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissalarini qo'shishlarida, birinchi navbatda, ularning ma'naviy kamoloti, har jihatdan mukammal insonlar bo'lib shakllanishlari g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, mamlakatimizni demokratik tamoyillar, ilm-fan yutuqlari asosida modernizatsiya qilish bilan birga, muqaddas dinimizni, milliy o'zligimizni asrab-avaylab yashashni maqsad qilib qo'yganmiz. Sharqona ma'naviy ahloqning asosiy mezonini bizga qadimdan meros bo'lib kelayotgan urf-odatlar, an'analar hamda ko'plab xalqlar falsafasining asosi bo'lib yaratilgan umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi. Bu tushunchalar Sharq falsafasida insoniyat uchun, har bir xalq, oila va shaxs uchun bebaho boylik va mulk sifatida baholanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, sharq xalqlari hayotida zamin, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug', umuman olganda, davlat mustaqilligiga sadoqat, insonga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik kabi tushunchalar keng ma'no kasb etadi. Agar inson o'zini xalqning bir zarrachasi deb hisoblasa, xalqni o'ylasa va uning manfaati yo'lida mehnat qilsagina, ma'naviy ahloqqa aloqador bo'ladi.

Hozirgi umumjahon yangilanishlar jarayoni avval muayyan mamlakat, keyin bir guruh davlatlar, ayni chog'da esa barcha mamlakatlar taqdiriga, jamiyatlar va jamoalar, alohida insonlar hayotiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsata boshladi. Dunyo yangilanishlari jarayonida har bir davlat o'z taraqqiyot yo'lini o'zi belgilab, jamiyatdagi ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy salohiyatni takomillashtirmoqda.

O'zbekistonda ham bu o'zgarishlar jarayonlari oqimida o'zining betakror ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy yangilanish dasturlari yaratilib, ularda inson manfaatlari

ustuvorlikka ega bo'lib, bu jamiyatdagi barkamol avlod, qolaversa, har bir farzandimizning ma'naviy-axloqiy yetukligiga bog'liq.

Kelajakda huquqiy demokratik davlat barpo etish va xalqimiz uchun munosib turmush tarzini yaratish oliy maqsadimizdir. Bu maqsadlarga erishishimiz xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizga, ularning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga bevosita bog'liq. Jamiyatimizni isloh qilish, milliy qadriyatlarimiz va haqiqiy tariximizni tiklash, milliy g'oyamizga ega bo'lish jarayonida yoshlarni ma'naviy-axloqiy ruhda tarbiyalash dolzarb masalalardan bo'lib, u tarbiyaviy ishlar majmuida asosiy o'rinni egallaydi.

So'nggi yillarda yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy tafakkurini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Buni amaldagi hukumat tomonidan mazkur sohaga qaratilgan e'tiborning ortib borayotgani, qabul qilinayotgan qaror va boshqa huquqiy hujjatlardan ko'rish mumkin. Shunday hujjatlardan biri – bu qabul qilinishi kutilayotgan “Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturidir. Davlatimiz rahbari SH Mirziyoyev ishlab chiqiladigan konsepsiyadan kutiladigan natijalar haqida to'xtalib o'tgan.

- Bu, avvalo, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi.

- O'z navbatida, bu jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

- Bunda, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – oliy maqsaddir.

- Ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining mamlakatimiz taraqqiyotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirishga qaratilgan alohida dasturlar qabul qilinadi.

- Ijodkor ziyolilarga doimiy e'tibor qaratish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlar davom ettiriladi.

- Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

- Hududlarning madaniy yuksalishi, xalq hunarmandchiligini ravnaq toptirishga qaratilgan manzilli ishlarni tizimli asosda olib boriladi.

- Mamlakatimizda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash, fuqarolarimizni turli mafkuraviy tahdidlardan, zararli oqim va g'oyalardan himoya qilish masalalari bundan buyon ham diqqat markazida bo'ladi.

- Muqaddas dinimiz, ezgu fazilatlarimizning mujassam ifodasi sifatida qadrlanadi. Yurtimizda turli diniy konfessiyalar uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan siyosat izchil davom ettiriladi.

Yaratilajak konsepsiya avvalo, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi. Jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tarbiyada uzilishga yo'l qo'yib bo'lmasligi, odamlarning yoshi, kasbi, bilimi darajasi va ma'naviy qiyofasiga qarab ma'rifiy ishlarning samarali uslublarini joriy qilish lozimligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Shu sababli targ'ibot-tashviqot ishlarini ham ommaviy, ham muayyan ijtimoiy guruhlar, ham individual tarzda olib borish zarurati yuzaga kelmoqda. Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishda ommaviy axborot vositalari katta ta'sir kuchiga ega. Ochig'i, ularning bu imkoniyatlaridan yetarli darajada samarali foydalana olmayapmiz. Ijtimoiy tarmoqlarda so'nggi paytlarda kuzatilayotgan turli g'oyaviy va mafkuraviy xurujlarga aks ta'sir ko'rsatishning aniq tizimi shu paytgacha izchil yo'lga qo'yilmaganligi nihoyatda tashvishli hol. Ayniqsa, «ommaviy madaniyat» niqobi ostida milliy o'zligimiz va qadriyatlarimizga mutlaqo yot urf-odatlar singdirilayotgani hech bir qolipga sig'maydi. Ularning ko'pchilik shakllari nikoh to'ylarida joriy qilina boshlaganiga guvoh bo'lib turibmiz.

Televideniye va radio kanallardagi badiiy kengashlar faoliyatini tanqidiy o'rganish va tahlil qilish lozimga o'xshaydi. Telekanallar soni oshishi bilan birga ulardagi ko'rsatuvlarning ma'naviy-ma'rifiy darajasini yuksaltirish muammoligicha qolmoqda. Xorijiy televideniyelardan andoza olgan holda turli xil shoular, tanlovlar, chet el teleseriallari va ularning syujetlari asosidagi milliy seriallar, kliplar namoyish etilishi, ko'p hollarda oilaviy mojarolar, xudbinlik mavzulari atrofida o'ralashib qolinayotgani endi ulg'ayib kelayotgan yoshlarimizga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayotgani shubhasiz. Albatta, bu o'rinda davr va zamon, inson va uning dunyoqarashidagi sifat o'zgarishlarini hisobga olgan holda o'z faoliyatini isloh qilib, yangicha sharoitda ham salmoqli miqdordagi mushtariylarga ega davriy matbuot nashrlari borligini e'tirof etish joiz. Lekin ular ham sanoqli.

Odamlarning matbuot nashrlariga qiziqishini qayta tiklash muhim muammolardan biriga aylandi. Menimcha, ushbu masala yechimi uchun jiddiy ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazilishi, ular yakunlari tahlil va xulosalar asosida tahririyatlar faoliyati isloh qilinishi, matbuot nashrlarining ijtimoiy tarmoqlardagi ommabopligini oshirish bo'yicha tizimli choralar belgilanishi va amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, yangi O'zbekistonni va unda ma'rifatli jamiyatni yaratish hammamizga va har birimizga ko'p jihatdan bog'liq. Avvalo, barchamiz -

bunyod etilayotgan yangi jamiyatimizga munosib bo'lish uchun boy tarixiy madaniyatimiz va milliy qadriyatlarimizga asoslangan holda zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan mustahkamlangan salohiyatga ega bo'lishimiz lozim. Shu sababli ham keng miqyosdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishda huquqiy-tashkiliy shaklidan qat'i nazar, jamiyatimizning ushbu sohaga mutasaddi - subyektlarini o'zaro uzviy va muvofiqlashgan faoliyati tizimli yo'lga qo'yilishini davrning o'zi talab qilmoqda.

Dunyoda kechayotgan globallashuv jarayoni ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha jabhalariga kirib bormoqda. Xususan, globallashuv sharoitida axborot omilining yetakchi o'ringa chiqayotganligi bois bunday sharoitda yoshlarimizni turli global tahdidlardan himoya qilish, ularni g'oyaviy tahdidlarga qaram bo'lmaydigan ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishlarini ta'minlash har qachongidan ham muhim. Chunki globallashuv ijobiy jihatlari bilan bir qatorda salbiy xususiyatlarga ham ega bo'lib, bular birinchi navbatda mafkuraviy tahdidlarning hech qanday chegaralarsiz kirib kelishi bilan xarakterlanadi. Shu o'rinda Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyovning fikriga e'tibor qaratish zarur: "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin, tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim".

Bu borada hukumat tomonidan qabul qilinayotgan qator meyoriy hujjatlar masalaning o'ta jiddiy va dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, 2018 yilning 14 avgustida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi qarori ham mazkur masalaga davlat darajasidagi e'tiborning yaqqol ko'rinishidir. Mazkur qarorda, yosh avlod ongiga Vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga, ularda yot g'oya va qarashlarning salbiy ta'siriga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar bugungi kunda yetarli darajada samara bermayapti deya ta'kidlanadi hamda masalaning yechimi sifatida aniq dastur ishlab chiqilishi, ushbu dasturning boshida yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashning bugungi kundagi zarurligi asoslab berilgan.

Global axborotlashuv yoshlarimizning dunyoqarashi, tafakkuriga, milliy-madaniy qadriyatlarga ham turli xil yo'llar bilan ta'sir ko'rsatishga intilayotganligi

ijobiy mohiyat kasb etishi bilan birga, salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarish ehtimoli namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayonning bunday ta'sirini yoshlar hayotidagi pozitiv o'zgarishlarga mos "meyor" darajasi bilan taqqoslab olib borish, aksincha, uning buzilishi holatini farqlash va hisobga olish muhim. Ayniqsa, axborot ko'lamini tez sur'atlar bilan ortib, mustaqillik tufayli yoshlarimizning yangi-yangi axborot maydonlariga kirish imkoniyatiga ega bo'layotgan bir davrda, muayyan millat yoki xalqqa xos bo'lgan fikrlar, qarashlar axborot tizimi orqali butun dunyoga tarqatilmogda.

Axborotning ta'sir kuchini bugun yer kurrasining barcha mintaqasida sezish mumkin. Buni ayniqsa XXI asrning boshlarida juda ko'p mamlakatlar o'z tajribalaridan o'tkazib ko'rishdi. Axborotning salbiy ta'siri doirasiga tushib qolgan ayrim mamlakatlar esa o'z boshlaridan og'ir jarayonlarni o'tkazishdi. Asrimizning ilk yillarida rivojlanayotgan ayrim MDH mamlakatlari (Qirg'iziston, Gruziya, Ukraina) yoki Shimoliy Afrika mamlakatlari (Misr, Liviya, Tunis) kabi davlatlar tarixda "rangli inqiloblar" nomi bilan tarixda qolayotgan "aksiya"ning qurboniga aylanishganini butun dunyo ko'rdi. Ushbu davlatlardagi sodir bo'lgan jarayonlarga baho berayotgan ekspertlar hokimiyat almashuvi ro'y berdi deyishadimi, yoki hukumat tepasida noqonuniy rahbar o'rniga legitim hukumat keldi deyishadimi farqi yo'q. Eng asosiysi mazkur hodisalar oqibatida mamlakat iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy va boshqa jihatlardan katta zarar ko'rgani shubhasiz. Yuqorida nomlari keltirilgan mamlakatlarda amalga oshirilgan "rangli inqiloblar"ning katta ko'lamda avj olib ketishiga tashqaridan ko'rsatilgan ta'sir asosiy sabab sifatida e'tirof etiladi. Bu ta'sirning asosiy kuchi yoshlarga qaratilganligi va axborot omiliga tayanishini e'tiborga olsak, undan himoyalaniishning asosiy sharti sifatida zararli axborot muhitidan himoyalaniish zarurligi ayon bo'ladi. Shubhasiz yaqin o'tmishda jahoda sodir bo'lgan voqealarni kuzatib, u "arab bahori" bo'ladimi, turli rang nomlari bilan ataladigan "rangli inqiloblar" bo'ladimi hammasining boshlanishi tashqaridan tiqishtirilgan axborot ta'sirida amalga oshirilgani ma'lum bo'lmoqda. Bu esa o'zining yorqin kelajagini ta'minlashga intilayotgan jamiyatlardan yanada hushyorroq bo'lishni taqozo etadi.

Demak, dunyo miqyosida axborot xavfsizligi omili yetakchi mavqe egallab, milliy taraqqiyotning kelajagi ana shu omilning naqadar ta'minlanganligi darajasi bilan o'lchanar ekan, davlat hokimiyati organlari ushbu masala yechimida muhim o'rin tutishlari lozim.

1. Uchinchi ming yillik boshiga kelib jahon hamjamiyati taraqqiyoti axborotlashuvning faol rivojlanayotgan jarayonlari bilan uzviy bog'liq holda o'sib bormogda. Bugungi fan-texnika taraqqiyotining hosilasi sifatida axborot ko'lamining kengayib borishi globallashuvning tarkibiy qismi sifatida globallashayotgan dunyoda tafakkur globallashuvini belgilab bormogda. Ushbu jihat axborot omili bilan

chambarchas bog'liq bo'lib, tabiiy ravishda ma'lumot almashinuvning globallashtirishini ta'minlamoqda.

2. Ma'lumot almashinuv, ayirboshlash kabi axborot sohasidagi ustuvorlikni ta'minlaydigan bu omillar jamiyat a'zolari ongiga kuchli ta'sir o'tkazish va uni boshqara olish imkoniyatlarini kengaytirdi. Xususan, jahon media-xoldinglari egalari voqea-hodisalarni yoritishda muayyan guruh, siyosiy tashkilot yoki muayyan davlat mafaatlari ta'minlash maqsadida urg'ularni o'zgartirish yo'li bilan ham tomoshabin yoki eshituvchida ro'y bergan voqelikka nisbatan o'zlari istagan munosabatni shakllantirish qudratiga ega. Yoshlar ma'naviyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan g'arb turmush tarzini targ'ib etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan ayrim tashkilot, ko'rsatuv va eshittirishlar axborot tizimi vositasida kishilar ongiga istagan fikrlar, qadriyatlar, ko'rsatmalarni singdirishga intiladi. Internet esa virtual voqelikni shakllantirib, undan foydalanuvchilarda madaniyatning yangi ko'rinishi – kibermadaniyatni qaror toptirmoqda. Global axborotlashuv bois bugungi voqelikning shiddatli tus olayotganligi tabiiy ravishda har qanday davlat oldida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasini qo'ymoqda. Axborot xavfsizligini ta'minlash masalasi dunyo miqyosida global jarayonlarning rivojlanib borayotganligi sharoitida o'zligi, milliyligi, davlatchilik an'analarini saqlab, rivojlantirib borishdan manfaatdor taraqqiyparvar mamlakatlar orasida qizg'in muhokama qilinayotgani ham bejiz emas. Bunday muhokamalarda axborotning yoshlar ma'naviy taraqqiyotidagi ijobiy rolini ta'kidlash bilan birga uning jamiyat axloqiy barkamolligiga salbiy ta'siri kuzatilayotganligi ham ta'kidlanmoqda. Insoniyat uchun bunday tahdidli holatlar kuchayayotganligi sharoitda ziyolilar bilan birga qatorda davlat hokimiyati organlari oldida yoshlar ongi va qalbida milliy g'oyaga sodiqlik hislarini rivojlantirish talab etilib, ushbu jihatlar mustaqillikni mustahkamlash, milliy o'zlikni himoya qilish, madaniy o'ziga xoslikni asrash va axborot xurujlaridan himoyalash vositasi sifatida ham muhim.

3. Axborot xavfsizligini ta'minlash sharoitida yoshlar ma'naviyatini oshirishda davlat hokimiyati organlari tomonidan quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilishi muhim:

4. Yoshlar ma'naviyati bugungi axborot xavfsizligini ta'minlash sharoitida kuchli g'oyaviy immunitet rivojini talab etib, jamiyatning madaniy-ma'naviy sohalari uchun mas'ul davlat tashkilotlari ushbu masalaga alohida diqqat-e'tibor qaratishi zarur;

5. G'oyaviy-informatsion tahdidlar mavjudligi, shuningdek, yoshlarning ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi axborotning tanqisligi sharoitida yoshlar ongida axborot vakuumi paydo bo'lish ehtimoli yuqori. Bunda davlat hokimiyati organlari Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan maqsadli vazifalar ijrosini ta'minlash muhim;

6. Bugungi global axborotlashuv sharoitida jamiyatning axborot xavfsizligi milliy xavfsizlikning ajralmas qismi sifatida namoyon bo'layotganida, ushbu jihat davlat hokimiyati organlarining doimiy nazoratida bo'lishi lozim.

7. Demokratik-huquqiy rivojlanish sharoitida yoshlarni dunyoning barcha informatsion oqimlaridan axborot olish imkoniyati kengayadi. Bunda milliy ma'naviyatni yuksaltiruvchi axborotlar bilan birga, ma'naviyat tubanlashuviga olib keladigan axborot oqimlari kirib kelish ehtimoli ham kuchayadi. Bunday sharoitda davlat hokimiyati organlari davlatga qarashli va nodavlat OAV faoliyatida g'oyaviy immunitetni rivojlantirishga xizmat qiluvchi ko'rsatuv, eshittirish va maqolalar tarqalishini ta'minlashlari muhim ahamiyatga ega;

8. Fuqarolik jamiyati asoslari mustahkamlanayotgan bugungi kunda aksariyat davlat organlarining funksiyasi fuqarolar qo'liga o'tadi. Lekin, o'tish davrining ayrim ziddiyatlari hamda ba'zi muammolar mavjud sharoitda davlat o'zining bosh islohotchilik mavqeidan kelib chiqib, hokimiyat organlari OAV faoliyatini umummaqsad sari yo'naltirishi lozimki, bu jihat davlat va fuqarolar o'rtasidagi birlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Nazorat savollari:

1. Siyosiy va huquqiy islohotlar, davlat boshqaruvi tizimining takomillashtirilishini tushuntirib bering.

2. Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etishini ko'rsatib bering.

3. O'zbekiston Respublikasining zamonaviy konstitutsionalizmni bayon eting.

4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi asosiy o'zgarishlar va ularning zaruriyatini izohlab bering.

5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlarini tushuntirib bering.

6. Jamiyatning iqtisodiy negizlarini ko'rsatib bering.

7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ma'muriy-hududiy va davlat tuzilishi masalalarini bayon eting.

8. Davlat hokimiyatining tashkil etilishining konstitutsiyaviy asoslarini izohlab bering.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – T.: «O'zbekiston», 2017.-104 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 48 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 13 iyundagi “Qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash – barcha ezgu ma'isadlarimizga erishishning eng muhim sharti” mavzusidagi ma'ruzasidan [http://uza.uz/oz/politics/qonun va adolat-ustuvorligini taminlash-barcha-ezgu-ma'isadlar-13-06-2017?sphrase_id=2579526](http://uza.uz/oz/politics/qonun-va-adolat-ustuvorligini-taminlash-barcha-ezgu-ma'isadlar-13-06-2017?sphrase_id=2579526).

5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2022. – 416 b.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. 2025 yil 23-sentyabr.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil, 26 dekabr.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O'zbekiston, 2023.

2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni.

3. O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4477-sonli Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4996-sonli Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-sonli Farmoni.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-228-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-yuldagi “Siyosiy qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish

to'g'risida"gi PQ-270-sonli Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-noyabrda "2025-2026 yillarda mamlakatimizda Qatag'on qurbonlari hayoti va faoliyatini targ'ib etish ishlarini yanada jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 691-sonli Qarori.

III. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. <http://www.strategy.uz>
5. <https://president.uz>
6. <http://www.edu.uz>

AMALIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI.

1-MASHG'ULOT. 2030-YILGACHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKGA ERISHISH STRATEGIYASI. (2 COAT)

2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish. Ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi. "Yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillariga asoslangan yuqori iqtisodiy o'sish dasturlari va ularning amaliyotga tadbqiq etish istiqbollari. «Yashil makon» tashabbusini kengaytirish, iqlim xatarlariga bardoshlilikni oshirish.

Tayanch tushunchalar: 2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish, ekologik barqarorlikga erishish strategiyasi, "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sish tamoyillari, «Yashil makon» tashabbusi.

So'nggi yillarda jahon hamjamiyatida ekologik barqarorlik va iqtisodiy o'sishni uyg'unlashtirish masalasi dolzarb mavzulardan biriga aylandi. Iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslarning kamayib borishiva ekologik muammolarning keskinlashuvi davlatlarni an'anaviy iqtisodiy yondashuvlardan voz kechib, yashil iqtisodiyot konsepsiyasiga o'tishga undamoqda. Yashil iqtisodiyot nafaqat ekologik xavfsizlikni ta'minlash, balki barqaror iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishda muhim omil hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi ham mazkur global jarayonlardan chetda qolmagan holda, milliy taraqqiyot strategiyasida ekologik barqarorlikni ta'minlash va resurslardan oqilona foydalanishni ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olgan.

2019-yil 4-oktabrda qabul qilingan Prezident qarori PQ-4477 — “O‘zbekiston Respublikasida 2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi to‘g‘risida”gi hujjat ushbu boradagi islohotlarning huquqiy asosini yaratdi.

Mazkur strategiya mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish, energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, ekologik muammolarni kamaytirish va aholining turmush sifatini yaxshilashga qaratilgan. Shu bilan birga, moliya institutlari, sug‘urta kompaniyalari va xususiy sektor vakillari ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda faol ishtirok etishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Shu maqsadda 2019-yil 4-oktabrda qabul qilingan PQ-4477-sonli Prezident qarori — “O‘zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hujjat mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichini belgilab berdi.

Mazkur strategiya quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

1. Energiya samaradorligini oshirish – iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida energiya sarfini kamaytirish, zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalarni keng joriy etish.

2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish – quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish, biogaz va gidroenergetika loyihalarini kengaytirish, 2030-yilgacha umumiy energiya balansida qayta tiklanuvchi manbalar ulushini sezilarli oshirish.

3. Atrof-muhitni muhofaza qilish – chiqindilarni qayta ishlash, havoga chiqarilayotgan zararli moddalar hajmini kamaytirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish.

4. Transport tizimini modernizatsiya qilish – ekologik toza transport vositalaridan foydalanishni kengaytirish, elektr transport infratuzilmasini yaratish.

5. Qishloq xo‘jaligida barqarorlikni ta‘minlash – suvni tejoychi texnologiyalarni joriy qilish, yer unumdorligini oshirish va ekologik xavfsiz mahsulot ishlab chiqarishga e‘tibor qaratish.

6. Moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish – yashil obligatsiyalar, sug‘urta va imtiyozli kreditlar orqali iqtisodiyotning “yashil sektor”iga investitsiyalarni keng jalb etish.

PQ-4477 qarorining ahamiyati shundaki, u nafaqat ekologik muammolarni hal qilishga, balki iqtisodiy o‘tishning sifat jihatdan yangi modelini shakllantirishga xizmat qiladi. Qarorda qayd etilgan chora-tadbirlar BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mamlakatning xalqaro hamkorlikdagi iqlim siyosatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, strategiya doirasida 2030-yilgacha quyidagi asosiy ko'rsatkichlarga erishish belgilangan:

yalpi ichki mahsulot birligiga nisbatan energiya sarfini keskin kamaytirish;

qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 25–30 foizgacha oshirish;

chiqindilarni qayta ishlash darajasini oshirish va ikkilamchi resurslar bozorini rivojlantirish;

ekologik toza transport vositalarining umumiy transport tizimidagi ulushini kengaytirish.

Shunday qilib, PQ-4477 qarori O'zbekistonni an'anaviy resurslarga asoslangan iqtisodiy modeldan ekologik barqaror va innovatsion iqtisodiyot sari yo'naltiruvchi strategik yo'l xaritasi vazifasini bajaradi.

Yashil iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishi nafaqat davlat siyosati va huquqiy asoslar, balki moliyaviy institutlarning faol ishtirokini ham talab etadi. Chunki ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yirik loyihalar katta miqdordagi investitsiyalarni jalb etishni zarur qiladi. Bu jarayonda tijorat banklari, investitsiya fondlari, xalqaro moliya institutlari hamda sug'urta kompaniyalari muhim rol o'ynaydi.

Moliyaviy institutlar yashil iqtisodiyotning moliyaviy asosini yaratadi. Ularning asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

Yashil kreditlash – ekologik toza texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya va chiqindilarni qayta ishlash sohalariga imtiyozli kreditlar ajratish;

Yashil obligatsiyalar – ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus obligatsiyalar chiqarish;

Xalqaro hamkorlik – Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa moliyaviy tashkilotlar bilan birgalikda investitsiya loyihalarini amalga oshirish;

Raqamli moliya – zamonaviy texnologiyalar orqali moliyaviy oqimlarni shaffoflashtirish va ekologik loyihalarning samaradorligini oshirish.

Sug'urta sohasi yashil iqtisodiyotda strategik ahamiyatga ega. Chunki yashil loyihalar ko'pincha yuqori risklarga ega bo'lib, ularning muvaffaqiyati sug'urta himoyasisiz kafolatlanmaydi.

Sug'urta kompaniyalari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Ekologik xavf-xatarlarni sug'urtalash – iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar va ekologik falokatlar oqibatida yuzaga keladigan moliyaviy zararlarni qoplash.

2. Yashil loyihalarni moliyaviy kafolatlash – qayta tiklanuvchi energiya stansiyalari, chiqindi qayta ishlash zavodlari kabi yirik investitsiya loyihalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash.

3. Risklarni boshqarish – yashil iqtisodiyotga oid loyihalarning xavf darajasini baholash, ularni minimallashtirish bo'yicha maslahatlar berish.

4. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlash – sug'urta mexanizmlari orqali yashil iqtisodiyotda investorlar ishonchini oshirish.

O'zbekistonda esa sug'urta kompaniyalarining yashil iqtisodiyotdagi roli endigina shakllanmoqda. PQ-4477 qaroridan kelib chiqib, bu sohada alohida sug'urta mexanizmlari ishlab chiqilishi dolzarb vazifadir.

Shunday qilib, moliyaviy institutlar, xususan, sug'urta kompaniyalari yashil iqtisodiyotning moliyaviy tayanchi hisoblanadi va ular barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda asosiy vositachilardan biri bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi 2030 yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham qaratilgan. Mazkur islohotlarning samaradorligi ko'p qirrali bo'lib, ular quyidagi yo'nalishlarda o'z ifodasini topmoqda:

Iqtisodiy samaradorlik:

1. Energiya tejamkorligi – sanoat va transport sohalarida energiya samaradorligini oshirish natijasida ishlab chiqarish xarajatlari kamaymoqda, bu esa milliy mahsulotning raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

2. Investitsiyalarni jalb qilish – qayta tiklanuvchi energiya manbalariga oid loyihalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayoni jadallashmoqda. Yashil obligatsiyalar va imtiyozli kreditlar iqtisodiyotda yangi moliyaviy instrument sifatida shakllanmoqda.

3. Innovatsion texnologiyalarni joriy etish – ilmiy-tadqiqot institutlari va startap kompaniyalarning ekologik toza texnologiyalar sohasidagi faoliyati kengayib bormoqda. Bu esa innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirmoqda.

4. Eksport imkoniyatlarining oshishi – ekologik standartlarga javob beruvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali O'zbekiston xalqaro bozorlar, xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga chiqish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Ijtimoiy samaradorlik:

1. Aholining bandligini ta'minlash – qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik qishloq xo'jaligi sohalarida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda.

2. Sog'lom turmush tarzini rivojlantirish – havoning ifloslanishi, chiqindilar muammosi va iqlim o'zgarishi ta'sirining kamayishi natijasida aholining sog'lig'i yaxshilanadi.

3. Ekologik ongni yuksaltirish – ta'lim muassasalari va ommaviy axborot vositalari orqali aholining ekologik madaniyati oshmoqda, bu esa barqaror rivojlanishga faol hissa qo'shadi.

4. Hududiy tenglik – yashil iqtisodiyot loyihalari, jumladan, quyosh va shamol elektr stansiyalari qishloq hududlarida ham amalga oshirilayotgani tufayli urbanizatsiya jarayonidagi ijtimoiy tengsizlik kamayadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy natijalar ekologik samaradorlik bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, chiqindilarni qayta ishlash sohasi nafaqat iqtisodiy daromad, balki atrof-muhit tozaligini ham ta‘minlaydi; qayta tiklanuvchi energiya manbalari esa uglerod izini kamaytirish bilan birga, yangi ish o‘rinlarini yaratadi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda yashil iqtisodiyot islohotlari iqtisodiy o‘sishni ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayon nafaqat milliy rivojlanish strategiyasiga, balki xalqaro barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang tarzdaolib borilmoqda.

Muammolar va istiqboldagi yechimlar.

O‘zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarali natijalar berayotganiga qaramay, ushbu jarayonda qator tizimli muammolar ham mavjud. Ularni bartaraf etish bo‘yicha istiqboldagi yechimlarni ishlab chiqish zarur.

Moliyaviy muammolar.

1. Investitsiya resurslarining cheklanganligi – qayta tiklanuvchi energiya va ekologik texnologiyalarni joriy etish katta mablag‘ talab qiladi, lekin ichki moliyaviy manbalar yetarli emas.
2. Xalqaro moliya institutlariga qaramlik – hozirgi paytda ko‘plab yashil loyihalar asosan xalqaro kredit va grantlarga tayangan holda amalga oshirilmoqda.

Yechimlar:

1. Yashil obligatsiyalar va moliyaviy derivativlarni milliy moliya bozorida keng joriy etish.
2. Davlat-xususiy sheriklik asosida yirik ekologik loyihalarni moliyalashtirish.
3. Sug‘urta kompaniyalarini yashil loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga jalb etish.

Texnologik muammolar:

1. Innovatsion texnologiyalarning yetarlicha rivojlanmaganligi – qayta tiklanuvchi energiya uskunalari va chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalari asosan import qilinmoqda.
2. Mahalliy ilmiy-tadqiqotlarning sustligi – yashil iqtisodiyot sohasida ilmiy tadqiqotlar hali keng miqyosda yo‘lga qo‘yilmagan.

Yechimlar:

1. Milliy innovatsion markazlar faoliyatini kengaytirish va ularni xalqaro ilmiy hamkorlik tarmoqlariga qo‘shish.
2. Ekologik startaplarni rag‘batlantirish uchun maxsus grant dasturlarini joriy etish.

3. Yashil texnologiyalar bo'yicha xorijiy kompaniyalar bilan qo'shma korxonalar tashkil etish.

Institutsional muammolar:

1. Huquqiy bazadagi bo'shliqlar – ekologik talablar va yashil iqtisodiyot standartlari to'liq ishlab chiqilmagan.

2. Davlat idoralari o'rtasida koordinatsiya yetarli emas –ba'zi loyihalar turli vazirlik va idoralar o'rtasida to'liq muvofiqlashtirilmagan holda amalga oshirilmoqda.

Yechimlar:

1. Yashil iqtisodiyot bo'yicha yagona davlat agentligini tashkil etish.

2. Huquqiy normalarni xalqaro standartlarga moslashtirish.

3. Har bir vazirlik faoliyatida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha maxsus departamentlar tashkil etish.

Ijtimoiy muammolar:

Ekologik madaniyatning pastligi – aholining katta qismi resurslarni tejash, chiqindilarni qayta ishlash yoki ekologik transportdan foydalanishning ahamiyatini yetarli darajada tushunmaydi.

Kadrlar yetishmovchiligi – qayta tiklanuvchi energiya va ekologik texnologiyalar sohasida malakali mutaxassislar soni kam.

Yechimlar:

1. Ta'lim tizimida yashil iqtisodiyot bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini joriy etish.

2. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ekologik ongni oshirish bo'yicha kampaniyalar olib borish.

3. Xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish.

Umuman olganda, mavjud muammolarni bartaraf etish orqali O'zbekiston yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonini yanada tezlashtirishi mumkin. Bu nafaqat milliy iqtisodiy barqarorlik, balki xalqaro miqyosda mamlakatning ekologik mas'uliyatli davlat sifatida nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida moliya sektori, xususan, sug'urta kompaniyalari va banklarning faoliyati hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki ekologik loyihalar yuqori sarmoya talab qiluvchi, uzoq muddatda o'zini oqlaydigan va ko'plab noaniqliklar bilan bog'liq jarayonlardir. Bunday sharoitda moliya institutlari risklarni kamaytirish, barqaror moliyalashtirish va investitsion muhitni shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Sug'urta kompaniyalari yashil iqtisodiyot loyihalarida bir necha yo'nalishda muhim o'rin tutadi:

1. Ekologik risklarni sug'urtalash – qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh, shamol, biomassa) loyihalarini amalga oshirishda tabiiy ofatlar, texnik nosozliklar va boshqa xatarlar yuzaga kelishi mumkin. Sug'urta kompaniyalari ushbu risklarni qoplab, investorlar uchun xavfsizlik kafolatini yaratadi.

2. Iqlim o'zgarishi oqibatlarini boshqarish – suv toshqinlari, qurg'oqchilik va boshqa tabiiy ofatlar natijasida ko'riladigan zararlarni sug'urtalash orqali aholining va korxonalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash mumkin.

3. Yashil sug'urta mahsulotlari – ekologik avtomobillar, energiya samarador binolar yoki chiqindilarni qayta ishlash korxonalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus sug'urta paketlarini ishlab chiqish istiqbolli yo'nalishdir.

Moliya sektorini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar berilgan:

- Sug'urta kompaniyalari uchun yashil sug'urta standartlarini ishlab chiqish;
- Bank tizimida yashil kredit liniyalarini kengaytirish;
- Milliy fondlar orqali ekologik loyihalarni grant va subsidiyalar bilan qo'llab-quvvatlash;
- Yashil obligatsiyalar bozorini shakllantirish uchun soliq imtiyozlari joriy etish;
- Moliya institutlarining ekologik loyihalarda risklarni baholash salohiyatini oshirish.

Umuman olganda, sug'urta kompaniyalari va moliya institutlari O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida "moliyaviy ko'priklarni" vazifasini bajaradi. Ularning faol ishtirokisiz na ekologik islohotlarning samaradorligi, na barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish mumkin bo'ladi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni ko'plab mamlakatlarda milliy rivojlanish strategiyasining ajralmas qismiga aylangan. Xorijiy tajribani o'rganish O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki xalqaro amaliyotlar nafaqat samarali mexanizmlarni, balki yo'l qo'yilgan xatoliklarni ham ko'rsatib beradi. Shu bois, Germaniya, Keniya va AQSh kabi mamlakatlarning yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi tajribasi O'zbekiston amaliyotini boyitishi mumkin.

Germaniya yashil iqtisodiyotning yetakchi markazlaridan biri hisoblanadi. 1990-yillardan boshlab bu davlat "Energiewende" (energiya burilishi) dasturini joriy qildi va natijada qayta tiklanuvchi energiya manbalari milliy energetika tizimining asosiy qismiga aylandi. Mamlakatda quyosh va shamol energiyasi loyihalarini moliyalashtirish uchun maxsus yashil obligatsiyalar bozori shakllantirildi. Bundan tashqari, sug'urta kompaniyalari ekologik risklarni baholash va qoplash mexanizmlarini ishlab chiqib, investitsion muhitni yanada ishonchli qildi.

Afrikaning rivojlanayotgan davlatlaridan biri bo'lgan Keniyada yashil iqtisodiyot dastlab qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va energiya yetishmovchiligini bartaraf etishga qaratildi. Mamlakatda geotermal energiya

manbalari keng o'zlashtirilmogda, bu esa energiya mustaqilligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalari qurg'oqchilik, suv taqchilligi va hosildorlikka ta'sir etuvchi ekologik xatarlarni qoplash mexanizmlarini yo'lga qo'ygan. Natijada, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari barqaror faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi.

AQSh yashil iqtisodiyotning turli segmentlarini rivojlantirishda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Federal va shtat darajasida ekologik toza texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha grant va subsidiyalar taqdim etiladi. Banklar va investitsiya fondlari yashil obligatsiyalarni keng miqyosda chiqarib, qayta tiklanuvchi energiya, transport va chiqindilarni qayta ishlash loyihalariga sarmoya kiritmoqda. Sug'urta sektori esa iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavflarni qoplash bo'yicha ilg'or mexanizmlarni ishlab chiqqan.

O'zbekistonda ham 2019-yilda qabul qilingan "2030-yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" milliy darajada ekologik islohotlarning yo'nalishlarini belgilab berdi. Energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini (quyosh va shamol) keng joriy etish, chiqindilarni qayta ishlash va ekologik transport tizimini rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilmoqda. Sug'urta kompaniyalari hali bu jarayonda to'liq faol ishtirok etmagan bo'lsa-da, istiqbolda ekologik risklarni qoplash bo'yicha yangi sug'urta mahsulotlarini joriy etishi kutilmoqda. Banklar esa energiya samarador texnologiyalarni joriy etuvchi korxonalarga imtiyozli kredit liniyalarini taqdim etishni boshlagan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tishda moliya sektori va sug'urta kompaniyalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Germaniya va AQShda moliya bozorining rivojlanganligi ekologik loyihalarning muvaffaqiyatini ta'minlagan bo'lsa, Keniya tajribasi rivojlanayotgan davlatlar uchun amaliy yo'l xaritasi vazifasini bajaradi. O'zbekiston esa o'zining milliy strategiyasi asosida bu tajribalardan foydalanib, ichki moliya institutlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirishi zarur.

Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayoni O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish strategiyasida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatning iqtisodiy samaradorligini oshirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

2-MASHG'ULOT. IJTIMOIIY RIVOJLANISH VA INSON KAPITALI, YANGI AVLOD KADRLARINI TAYYORLASH. (2 COAT)

Ijtimoiy rivojlanish va inson kapitali. Yangi avlod kadrlarini tayyorlash. Ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglik va yoshlar siyosati. Yoshlarning mamlakat rivojidadagi roli. Yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat

dasturlari. Islohotlarning ijtimoiy poydevori mahalla va ijtimoiy hamjihatlikni rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: *ijtimoiy rivojlanish, inson kapitali, yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash, gender tenglik, yoshlar siyosati, yoshlarning mamlakat rivojidagi roli, yoshlar ma'naviyatini oshirish bo'yicha davlat dasturlari.*

Bugungi kunda jamiyatning ijtimoiy rivojlanishga bo'lgan e'tibor har qachongidan ham kuchayib bormoqda. Buning sababi oddiy. Ma'naviyat millatni taraqqiyotga yetaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. Zero, insonning jamiyatdagi o'rni uning moddiy boyliklari bilan emas, balki yuksak ma'naviy qiyofasi bilan belgilanadi.

Jahonda insoniyatning taraqqiyoti, kelajagini shubha ostiga qo'yuvchi tahdidlar kuchayib bormoqda. Ularning orasida eng xatarlisi – bu shubhasiz ma'naviy tahdidlardir. Zero, mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda “Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. G'arazli kuchlar sodda, g'o'r bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin, tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim”.

So'nggi yillarda yurtimizda milliy ma'naviyatni yanada rivojlantirish bo'yicha qator qarorlar qabul qilinib, yangi O'zbekistonning yangi ma'naviy qiyofasini yaratish yo'lida izchil islohotlar olib borilmoqda. Bu o'zgarishlar ma'naviy-ma'rifiy ishlarni davlatimiz siyosatida yanada yuksak o'ringa ko'tardi.

Biroq, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda. Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Achinarli jihati, milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda.

Mazkur tahlikali vaziyatda yoshlarni ma'naviyatli qilib tarbiyalash, ularni kitob mutolaasiga jalb qilish, yoshlar o'rtasida mutolaa madaniyatini manzilli qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish eng asosiy masala hisoblanadi. Chunki, barkamol avlodni voyaga yetkazishda kitobning tarbiyaviy ahamiyati beqiyos. Aynan mutolaa insonga bilim va axborot beradi, uning ma'naviy olamini boyitadi.

Bugungi kunda badiiy, ma'rifiy, ilmiy-ommabop, tarbiyaviy, yoshlarning ma'naviy salohiyatini oshirishga qaratilgan adabiyotlarni chop etish, ular bilan ta'lim muassasalarini ta'minlash hayotiy zaruratdir. Qolaversa, kutubxonalarni yanada yangilash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan adabiy asarlar sonini ko'paytirish va sifatini yaxshilash lozim. 2021 yilning 19 yanvar kuni Prezidentimiz raisligida ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida davlatimiz rahbari bu masalaga alohida to'xtalib, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyat ekanini ta'kidladi.

Ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda tahlil qilishni davrning o'zi talab etayotgani, jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar shunday asosda yo'lga qo'yilmagani uchun ham kutilgan natijani bermayotganini aytgan holda, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi ishini tanqidiy o'rganib chiqib, faoliyatini tubdan takomillashtirish zarurligi qayd etdi.

Hozirgi kunda ma'naviyat targ'iboti bilan o'nlab tashkilotlar shug'ullanishi hech kimga sir emas. Lekin, ularning faoliyati aniq muvofiqlashtirilmayotgani, yagona tizimga birlashmagani sababli bir-birini takrorlash holatlari kuzatilyapti. Shu sababli, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi barcha hududiy kengashlarning, vazirlik, idora va tashkilotlarning ma'naviy-ma'rifiy faoliyatini muvofiqlashtirib borish zarurati paydo bo'ladi.

Yana bir muhim jihat shuki, bugun talim muassasalarida yoshlarga ta'lim va tarbiya berish bilan bir qatorda, ularga ma'rifat va ma'naviyatni chuqur o'rgatish har qachongidan ham muhimroq. Bu borada joylarda yashab ijod qilayotgan professor-o'qituvchi va yozuvchilarni keng jalb qilish, ularning ijod va iste'dodlaridan unumli foydalanish yuqori samara berishi tayin.

Umuman olganda, ma'naviyat – eng muhim va hamma shug'ullanishi kerak bo'lgan masala hisoblanadi. Shunday ekan, jamiyatga yangi nur, yangi ziyo kirib borishi har bir jamiyat a'zosining ham asosiy ishiga aylanishi lozim. Zotan, har qaysi davlat, har qaysi xalq intellektual salohiyati, yuksak ma'naviyati bilan qudratlidir.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 7 ta asosiy yo'nalishning beshinchisi "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" masalasi bo'lib, bejizga ma'naviy ta'lim tarbiya masalasi alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilanmagan. Shu o'rinda, beshinchi ustuvor yo'nalish va unda belgilangan asosiy maqsadlarni keltirib o'tish joiz.

Jamiyatning ma'naviy takomiligi bo'lgan ehtiyoj davlatimiz tomonidan qabul qilinayotgan turli huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2021 26 martdagi "Ma'naviyat va ijodni

qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-5039-son Qarorini keltirish mumkin.

Qarorda quyidagi muhim vazifalarning ijrosiga qaratilgan chora-tadbirlar belgilangan:

- «Uzluksiz ma'naviy tarbiya kontseptsiyasi» asosida maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim bosqichlari uchun metodik qo'llanma, uslubiy tavsiyalar, ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi va metodikasini boyitishga qaratilgan ilmiy-amaliy adabiyotlar yaratish, ularni nashr etish va joylarga yetkazish;

- milliy merosimiz, buyuk ajdodlarimizning jahon tamadduniga qo'shgan ulkan hissalarini dunyo miqyosida keng targ'ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- sohaga «Raqamli targ'ibot» tizimini joriy qilish maqsadida IT-parklar, innovatsion markazlar va frilanserlar bilan hamkorlikda mobil ilovalar, kompyuter o'yinlari, animatsion mahsulotlar yaratish;

- joylarda ma'naviy-ma'rifiy muhitni o'rganish, hududiy ma'naviyat va ma'rifat kengashlari faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish, targ'ibot-tashviqot ishlarining samaradorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan ekspertlar guruhlarini qo'llab-quvvatlash;

- ma'naviy-ma'rifiy sohani, adabiyot va kitobxonlikni har tomonlama rivojlantirish, bu boradagi ishlar samaradorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash;

- mamlakatimiz va xalqaro miqyosda ilmiy-ma'rifiy tadbirlar, adabiy anjumanlar, festivallar, tanlovlar, xalq sayillari, adabiy-musiqiy kechalar o'tkazish;

- ma'naviy-ma'rifiy, adabiy-badiiy kitob va plakatlar nashr etish, zamonaviy targ'ibot vositalari va media mahsulotlar yaratish;

- Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari direktorlarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlari va ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar uchun qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etish;

- mahalliy hokimliklar bilan birgalikda olimlar va mutaxassislarni jalb etgan holda sohada faoliyat ko'rsatayotgan targ'ibotchilar malakasini oshirishga qaratilgan seminar-treninglar tashkil qilish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirishga qaratilgan yangi loyihalar, kitob, risola va maqolalar, tadbirlar stsenariylarini yaratish bo'yicha ijtimoiy buyurtmalarni shakllantirish hamda bu ishlarga jalb etilgan olim va mutaxassislarni moddiy rag'batlantirish;

- O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi tomonidan tavsiya etiladigan adiblarning ijod namunalarini, jumladan yosh mualliflarning birinchi kitoblarini nashr etish;

➤ O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolarining ijodiy kechalarini o'tkazish, adabiyotimiz rivojiga munosib hissa qo'shgan uyushma a'zolariga moddiy yordam ko'rsatish;

➤ xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati, asriy an'ana va qadriyatlari tarannum etilgan, milliy ma'naviyatimizning mazmun-mohiyati teran badiiy ifodasini topgan mumtoz va zamonaviy adabiyotimizning munosib namunalarini xorijiy tillarga tarjima qilish hamda jahon axborot tarmog'ida keng targ'ib etish;

➤ milliy adabiyotni rivojlantirish, adabiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan hamda mamlakat ijtimoiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan badiiy asarlar mualliflarini moddiy jihatdan rag'batlantirish;

➤ O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi hamda uning taniqli a'zolari ijodiy faoliyatiga bag'ishlangan veb-saytlarni yaratish va ularni yangilab borish.

Yana bir muhim hujjat - bu qabul qilinishi kutilayotgan "Yangi O'zbekiston – ma'rifatli jamiyat" kontseptsiyasi va uni amalga oshirish milliy dasturidir. Davlatimiz rahbari Sh Mirziyoev ishlab chiqiladigan kontseptsiyadan kutiladigan natijalar haqida to'xtalib o'tgan.

- Bu, avvalo, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi.

- O'z navbatida, bu jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

- Bunda, aholi, ayniqsa, yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalash – oliy maqsaddir.

- Ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot va badiiy ijod sohalarining mamlakatimiz taraqqiyotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirishga qaratilgan alohida dasturlar qabul qilinadi.

- Ijodkor ziyolilarga doimiy e'tibor qaratish, ularni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mehnat va yashash sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan ishlar davom ettiriladi.

- Madaniyat va sport muassasalari, teatr va muzeylarning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

- Hududlarning madaniy yuksalishi, xalq hunarmandchiligini ravnaq toptirishga qaratilgan manzilli ishlarni tizimli asosda olib boriladi.

- Mamlakatimizda diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni ta'minlash, fuqarolarimizni turli mafkuraviy tahdidlardan, zararli oqim va g'oyalardan himoya qilish masalalari bundan buyon ham diqqat markazida bo'ladi.

- Muqaddas dinimiz, ezgu fazilatlarimizning mujassam ifodasi sifatida qadrlanadi. Yurtimizda turli diniy konfessiyalar uchun zarur sharoit yaratishga qaratilgan siyosat izchil davom ettiriladi.

Yaratilajak kontsepsiya avvalo, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma'rifiy yuksalishiga erishish imkonini beradi. Jamiyat a'zolarining ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tarbiyada uzilishga yo'l qo'yib bo'lmazligi, odamlarning yoshi, kasbi, bilimi darajasi va ma'naviy qiyofasiga qarab ma'rifiy ishlarning samarali uslublarini joriy qilish lozimligini hayotning o'zi ko'rsatmoqda. Shu sababli targ'ibot-tashviqot ishlarini ham ommaviy, ham muayyan ijtimoiy guruhlar, ham individual tarzda olib borish zarurati yuzaga kelmoqda.

Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishda ommaviy axborot vositalari katta ta'sir kuchiga ega. Ochig'i, ularning bu imkoniyatlaridan yetarli darajada samarali foydalana olmayapmiz. Ijtimoiy tarmoqlarda so'nggi paytlarda kuzatilayotgan turli g'oyaviy va mafkuraviy xurujlarga aks ta'sir ko'rsatishning aniq tizimi shu paytgacha izchil yo'lga qo'yilmaganligi nihoyatda tashvishli hol. Ayniqsa, «ommaviy madaniyat» niqobi ostida milliy o'zligimiz va qadriyatlarimizga mutlaqo yot urf-odatlar singdirilayotgani hech bir qolipga sig'maydi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, bugungi tahlikali davrda ma'naviyat va ma'rifat faqat shu soha xodimlarining, o'qituvchi va murabbiylarninggina emas, balki barchaning burchi bo'lishi lozim. Masalaga ana shu jihatdan qarab, "Hech bir ota-ona o'z farzandiga go'zal tarbiyadan ko'ra buyuk meros qoldira olmaydi" hadisi sharifi va xalqimizning: "Bir bolaga yetti mahalla – ota-ona" maqoliga amalda rioya qilsak, hech qanday kuch ma'naviyatimizga raxna sola olmaydi.

3-MASHG'ULOT. MILLIY MA'NAVIYAT VA QADRIYATLAR, YANGI O'ZBEKISTONNING MA'NAVIY VA MADANIY TIKLANISH DASTURLARI. (2 COAT)

Milliy ma'naviyat va qadriyatlar. Yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari. Global jarayonlar va O'zbekistonning o'rnini, O'zbekistonning xalqaro maydondagi siyosiy va iqtisodiy aloqalari. "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish. Mamlakatimizning raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasini takomillashtirishga oid chora tadbirlar.

Tayanch tushunchalar: milliy ma'naviyat, milliy qadriyatlar, Yangi O'zbekistonning ma'naviy va madaniy tiklanish dasturlari, global jarayonlar, O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy aloqalari, "Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyili, raqamli va harbiy-tibbiy infratuzilmasi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish usullari, texnologiyalari, ustuvor yo'nalishlari XXI asrda insoniyat o'z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo'ydi. Dunyoda katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan bugungi kunda ijtimoiy makonni o'zlashtirishning yangi usullari, jumladan, yangi texnologiyalar keng rasm bo'ldi. Texnologiyalar asri deb atalayotgan XXI asrda ishlab chiqarishda joriy etilgan yangi texnologiyalar mehnat samaradorligini misli ko'rilmagan darajada o'stirib yubordi. Biroq yangi texnologiyalar faqat sanoat va qishloq xo'jaligida qo'llanilmayapti, balki ma'naviy, mafkuraviy jarayonlarda ham o'z samarasini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizdagi mafkuraviy jarayonlarga ham shu nuqtai nazardan yondoshish ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko'rsatadi. Ma'naviyat va ma'rifat g'oyalarini xalq qalbi va ongiga singdirish muayyan texnologiya asosida olib borilganida tadbirlarning ketma-ketligi, miqyosi va me'yori, davomiyligi va tamoyillari singari jihatlar qamrab olinadi. Ularning muhimligi shunda ko'rinadiki, masalan, targ'ibotda me'yorning buzilishi, milliy mafkura to'g'risida hadeb va noo'rin gapiraverish, me'yorni bilmaslik teskari samara berishi mumkin. Targ'ibot texnologiyasi ma'naviy-ma'rifiy ishlar, milliy g'oya va mafkura mazmun-mohiyatiga mos bo'lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni va mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o'tkazilishini ta'minlash;
- ma'naviyatning, milliy g'oyaning targ'iboti sifatini muntazam oshirib borish;
- davr talablaridan kelib chiqqan holda ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yo'llarini izlash;
- bu sohada eski uslublarning mutlaqlashtirilishiga, andozalashtirishga yo'l qo'ymaslik;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlar va mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlar va mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda uchraydigan rasmiyatchilik va majlisbozlik ko'rinishlariga baxram berish;
- mafkuraviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etishdan iborat.

Milliy g'oyaning targ'ibot-tashviqotini tashkil etishda quyidagi tashkiliy tamoyillarga amal qilinishi maqsadga muvofiq:

- keng qamrovlilik, bunda jamiyatning barcha a'zolariga g'oyalar xilma-xilligi asosida mafkurani singdirish, bu jarayonda aholining barcha qatlamlarini qamrab olish nazarda tutiladi. Natijada, jamiyatning barcha bo'g'inlari mafkuraviy ta'sir doirasida qamrab olinadi;

- umumiy maqsadga yo'naltirilganlik;

- faol insonni tarbiyalash va inson salohiyatini yuzaga chiqarish mafkuraning bosh maqsadi qilib olinadi chunki Islom Karimov “Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch” asarida ta'kidlaganidek “kommunistik mafkura va axloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan biz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'nviy va axloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmaslik kerak”.

- uzluksizlik – milliy g'oya targ'ibotining makonda va zamonda doimiyligini, uning yaxlit tizim shakliga keltirilishini anglatadi. Uzluksizlik tamoyili milliy g'oya va mafkurasi xalq ongiga singdirish uchun mamlakatda muayyan mafkuraviy maydon yaratishni taqozo qiladi. Bu maydondagi har bir holat va harakat, jumladan, ta'lim tizimidagi o'quv rejalari, dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, sinf va auditoriyalar, ko'rgazmali qurollar milliy g'oya va mafkuriga uyg'un bo'lishi talab etiladi;

- ketma-ketlik – har bir bosqich uchun istalgan qadriyatlarni singdirish maqsadida mafkuraviy tashviqot rejalashtiriladi;

- bosqichma-bosqichlik – milliy g'oya va mafkurani targ'ib qilishning ruhiy jihatlar bilan bog'liq bo'lib, ham targ'ib qiluvchi, ham qabul qiluvchining muayyan tayyorgarlik bosqichlaridan o'tishini taqozo qiladi. Aytaylik, boshlang'ich sinf o'quvchisiga milliy mafkuraning falsafiy va etnik ildizlari to'g'risida gapirish noo'rin bo'lishdan tashqari mutlaqo samarasiz hamdir. Shuning uchun bog'chada, boshlang'ich sinflarda, to'liqsiz o'rta maktabda, yuqori sinflar, akademik litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlari va mehnat jamoalarida ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy ish tinglovchi va o'quvchilarning yoshi, bilimi, ma'lumoti kabi jihatlarini hisobga olib aniq belgilangan reja asosida olib borilishi kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda meyor, shaxsiy ibrat va boqarish.

- me'yoriylik – aksil targ'ibotni keltirib chiqaradigan, hayotdan uzilib qolishga olib keladigan balandparvozlik, rasmiyatchilik va takrorlanishlarga yo'l qo'ymaydi;

- shaxsiy ibrat – ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va mafkuramizni targ'ib qilishda muvaffaqiyatni ta'minlaydigan muhim omillardan biri. Maktab muallimi darsda o'quvchilarga millat manfaatlari, orzu-umidlari, intilishlari to'g'risida balandparvoz gaplarni gapirsa-yu, o'zi hayotda shu manfaatlarga zid ishlarni qilsa, bu targ'ibotning samarasi nolga teng bo'ladi. Mamlakat va millat ravnaqi to'g'risida og'iz ko'pirtirib gapiradigan boshliq bo'shab qolgan lavozimga layoqatli va munosib xodim qolib, o'ziga qarashli, lekin bu o'ringa nomunosib odamni tiqishtirsa, u millatning yuziga oyoq qo'ygan bo'ladi va uning milliy mafkurani aksiltarg'ibot qilgan bo'ladi. Shuning uchun, milliy g'oyani aholi ongiga singdirishda targ'ibotchilar faoliyatida ish bilan

so'z birligini ta'minlash, ayniqsa, rahbar xodimlarning shaxsiy ibrat ko'rsatish tamoyiliga amal qilishi muvaffaqiyatni ta'minlaydigan eng muhim omillardan biridir.

Korxona, tashkilot, muassasa rahbari, ular davlat sektori yoki xususiy sektorga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar o'z jamoasidagi ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarga mas'ul bo'lishi kerak;

- ilg'or targ'ibot-tashviqot texnologiyalaridan foydalanish - bunda mafkuraviy targ'ibotga insonlarni mohirona boshqarish usuli sifatida qaraladi. Milliy g'oyaning targ'iboti qotib qolgan narsa emas, faol jarayondir. Shuning uchun uni qadimdan qolgan va'z aytish va ma'ruza o'qish kabi targ'ibot shakllari yordami bilangina keng xalq ommasi ongiga singdirib bo'lmaydi. Maqsadga erishish uchun targ'ibotning faol shakllaridan, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Yoshlar orasida targ'ibot olib borilganda munozara, bahs, davra suhbatlari kabi shakllardan oqilona foydalanilsa maqsadga tezroq va to'laroq erishish mumkin. Yoshlarning fiziologik va ruhiy xususiyatlari va'z va ma'ruzalarni emas, ko'proq interaktiv usullar va sanab o'tilgan targ'ibot shakllaridan foydalanishni taqozo qiladi.

Mazkur targ'ibot tamoyillari milliy istiqloq g'oyasini inson ongi va qalbiga singdirishning barcha bosqichlari uchun umumiy va bir xil bo'lib, turli bosqichlarda, turli shakl va vositalardan foydalanganda odamlarning yoshi, kasbi, ma'lumoti kabi xususiyatlari hisobga olinadi. Targ'ibot olib borishda sanab o'tilgan tamoyillarning muayyan auditoriya xususiyatlariga mosligini ta'minlash targ'ibot samaradorligini ta'minlaydigan eng muhim omildir.

Targ'ib qilinayotgan g'oyalarning inson ongida axborot, ma'lumot tarzida o'rinishi kifoya qilmaydi, ular insonning yurak-yuragiga yetib borganidagina ular inson qalbiga chuqur o'rinishadi. Buning uchun esa auditoriya targ'ibotchining milliy g'oyaga chuqur ishonchi va qat'iyatini his qilishi kerak. Lekin targ'ibotda g'oyalarga e'tiborni tortish bilan ham qanoatlanish mumkin emas. Chunki e'tiborni jalb qilish - targ'ibotning birinchi bosqichi, xolos.

Targ'ibotning keyingi bosqichi g'oyani to'g'ri va atroflicha tushuntirishni, mafkura bilan bog'liq barcha savollarga javob topib berishni talab qiladi. Chunki milliy g'oyani tushunish - unga ishonish demakdir. Ana shu yerda bir savol bilan to'qnashamiz: nima ko'proq ishonch uyg'otadi: jiddiy dalillar bilan asoslangan axborotmi yoki hissiyotlarni uyg'otuvchi ma'ruzami? Targ'ibot davomida insonning hislariga, qalbiga murojaat qilish katta samara beradi, albatta. Lekin ishonchli dalillar, e'tiroz uyg'otmaydigan hayotiy ma'lumotlarning keltirilishi bu g'oyalarni hayotga tatbiq qilishdan hammamiz manfaatdor ekanligimiz haqidagi fikrni uyg'otadi.

Targ'ibot jarayoni shu yerda tugaydi, deb o'ylaydiganlar katta xato qiladilar. Zero, mafkura yangi ishlarga ilhomlantiradi, harakatga undaydi. Harakatsiz mafkura esa safсатаbozlikdan bo'lak narsa emas. Demak, insonlar milliy mafkuradan o'rin

olgan g'oyalarga mos harakat qila boshlaganlaridagina milliy g'oya xalqning e'tiqodiga aylanganligi haqida xulosa qilish mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda fuqaro tarbiyasi.

Milliy g'oya va O'zbekiston tajribasi ko'tarilgan masalaning muhimligi O'zbekistonda ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilishga undaydi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak, bizda "fuqaro tarbiyasi" haqida kam gapiriladi. Lekin bizda bu vazifa o'z holiga tashlab qo'yilgan emas. O'zbekistonda fuqaro tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lib, asosan ikki yo'nalishda: Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida va milliy istiqlol g'oyasini singdirish vositasida amalga oshirilmoqda. Ko'rinib turibdiki, bizda ham fuqaro tarbiyasini amalga oshiruvchi maskan sifatida maktab tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Demak, maorifga millatni tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa yuklangan.

Lekin ta'lim tizimida targ'ibot-tashviqotdan maqsad – faqat bilim berish emas, balki kishini biror harakatga undashdan iborat ekanligini unutmashimiz lozim. Masalaga ana shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, milliy g'oya va mafkura o'qitilayotgani hali odamlar ongiga mafkura singdirilyapti degani emas. Demak, mafkuraviy maqsadlarni aniq o'quv vazifalari shakliga keltirishimiz, milliy g'oya va mafkuradagi asosiy g'oyalarning amaliy harakatlarga aylanishiga erishishimiz zarur. Ta'kidlash joizki, targ'ibotning negizida faqatgina g'oyaga ishonch emas, g'oyani targ'ib qilayotgan insonga ishonch ham yotadi. Shu bois, maqtash targ'ibotning yagona va hatto eng to'g'ri usuli ham emas. Demak, mafkurani hayotni faqat maqtash, uni benuqson tasvirlash orqali targ'ib qilish mumkin emas.

Bunga bir misol. Bir vaqtlar AQSh fuqarolarida demokratik tamoyillarning bir oz qadrsizlanishi kuzatilgan edi. Mutaxassislar tomonidan bu muammoning turli yechimlari taklif qilindi, lekin targ'ibotning bir oz noan'anaviy usuli tanlab olindi: demokratiyaning kamchiliklari oshkora aytildi, uning ba'zan «ishlamayotgani» ochiq tanqid qilindi va unga muqobillar sifatida kommunizm va monarxiya targ'ib etildi. Targ'ibotning bu usuli kutilgan samarani berdi: odamlar «yomon bo'lsa ham, demokratiyadan qo'ymasin» degan fikrga keldilar va demokratiyaning ashaddiy himoyachilariga aylandilar.

Bugungi voqelik milliy g'oya va mafkuri targ'iboti masalasiga alohida e'tibor berishni talab qilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda milliy g'oya va mafkura targ'iboti eng dolzarb masalalardan biriga aylanganligini inobatga oladigan bo'lsak, uning targ'ibot-tashviqotiga ham yangicha texnologiyalar, usullar, vositalarni jalb qilish foydadan holi emas. Milliy g'oya va mafkuri targ'ibotining ta'sirchanligini oshirish vazifasi ham bu jarayonda yangi texnologiyalarni keng qo'llash zaruratini kuchaytiradi. Mafkura targ'ibotida yangi texnologiyalarni qo'llashda jahonning qator

davlatlarida bu borada to'plangan ilg'or tajribalardan foydalanish ayni muddao bo'lur edi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishning bizda keng rasm bo'lgan turi voizlarning faoliyati bilan bog'liq. Targ'ibotning bu shaklining samaradorligini oshirish alohida e'tibor talab qiladi. Chunki, birinchidan, voizlar nutq so'zlaydigan auditoriyalarga odamlarni to'plash ba'zida majburiy tus oladi. Auditoriyaga ixtiyoridan tashqari boshlab kelingan insonda esa hali va'zni eshitmayoq, ichki qarshilik paydo bo'ladi. Demak, hali targ'ibot boshlanmasidanoq u teskari samara berishi ehtimoli kuchayadi. Ikkinchidan, bunday norozi auditoriyani o'ziga og'dirish, unga ta'sir ko'rsatish, uni ilhomlantirish voizdan juda katta mahorat talab etadi. Milliy g'oya va targ'ibot, tashviqot tushunchasi, milliy g'oyaning targ'ibot-tashviqoti haqida to'xtalishdan avval «targ'ibot» va «tashviqot» tushunchalarining o'zagiga e'tibor qaratish zarur. «Targ'ibot» tushunchasining o'zagini «rag'bat» so'zi tashkil etgani bois ham, u insonni biror harakatga rag'abatlantirishni nazarda tutadi. «Tashviqot» tushunchasining o'zagi esa «shavq» so'zidan olingan bo'lib, u kishida biror narsaga shavq uyg'otishga yo'naltiriladi. Ochig'i targ'ibot insonning ongi va qalbini egallashga qaratilgan. Targ'ibotchilarni, yangi voizlarni bekorga «inson qalbining sozlovchilari» deb atamaydilar. Demak, targ'ibot-tashviqotdan maqsad-bilim orttirish emas, balki kishini biror harakatga undashdan iborat. Masalaga ana shu jihatdan qaraydigan bo'lsak, «milliy g'oya» haqida ma'lumot berish bilan cheklanmasdan, mafkuraviy maqsadlarni aniq vazifalar shakliga keltirish milliy mafkuradagi asosiy g'oyalarning amaliy harakatlarga aylanishiga erishish zarur. Chunki milliy g'oya chuqur e'tiqodga aylangan taqdirdagina u ulkan kuch va qudratga ega bo'ladi. Buning uchun esa halqda mafkuradan o'rin olgan g'oyalarga kuchli ishonch, e'tiqod va unga amal qilish bo'lishi lozim.

Ta'kidlash joizki, ma'naviy-ma'rifiy ishlar ta'sirchanligini oshirishdagi eng asosiy shartlardan biri - milliy g'oya mafkuraning targ'iboti manipulyatsiya, ya'ni zimdan amalga oshirilishi zarurligidir. Inson unga ta'sir o'tkazilayotganini sezmasligi lozim. Aslida targ'ibot davomida mafkura so'zining ishlatilishi ham shart emas. Muxtasar qilib aytganda targ'ibot-tashviqot ishlarida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish muhim:

- oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishishdan har birimiz shaxsan manfaatdor ekanligimizga kishilarni ishontirish;

- kelajagimizni ko'z oldimizga keltirish imkonini beradigan, ertangi kunimiz qanday bo'lishini ko'rsatadigan materiallar tayyorlash;

- dolzarb qadriyatlarni singdirish maqsadida jamoatchilik fikriga shu qadriyatlarni jozibali qilib yetkazish;

- ommaviy axborot vositalaridan bilim ulashish va insonlarni aqliy boyitish quroli sifatida mohirona foydalanish;

- insonlarning erkin fikrlashini rag'batlantirish, ularni o'z fikrlarini himoya qilishga o'rgatish orqali mustaqil fikrlovchi insonni tarbiyalash;

- taraqqiyotimiz yo'lida g'ov bo'layotgan illatlarni fosh etish va tanqid qilish yo'li bilan ularni samarali «davolash»;

- ommaviy axborot vositalaridan haqiqat ko'zgusi sifatida foydalanish orqali insonlarning ularga ishonchini kuchaytirish;

- insonlarda chuqur taassurot qoldirish maqsadida badiiy obrazlar orqali milliy mafkurani singdirish. Bunda targ'ibot-tashviqot ishlarini puxta rejalashtirish, hissiyotlarga kuchli ta'sir qilish, jozibalilik, noan'anaviy usullarni qo'llash, oshkoralik, qadriyatlar doirasidan chiqmaslik, ommabop va tushunarli bo'lish, takrorlanishlar bilan kishilarning «me'dasiga tegmaslik» talab qilinadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va mafkuraning targ'ibotiga aynan shunday yondashish ko'proq samara beradi. Shundagina insonlarning salohiyati, mehnati, vaqti, mulki va mablag'larini tanlangan maqsad sari yo'naltirish mumkin. Bu esa mafkuraviy siyosatning natijasini moddiy narsalarda - yuqori sifatli mahsulotlarda, badavlat turmushimizda, bunyodkorlik ishlarida, erkin va farovon hayotda, iqtisodiy o'sishda «o'lchash» imkonini beradi¹.

Milliy mustaqillik qo'lga kiritilgan keyin dastlabki oylardan boshlaboq, birinchi Prezident Islom Karimov Milliy g'oya va mafkurani shakllantirish masalasini jiddiy vazifa qilib qo'ydi. Buning sababi»Milliy mustaqil davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga qaratilgan intilishlar va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrarligidir».

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va milliy g'oya bajaradigan yana bir muhim funktsiya tarbiyaviy funktsiyadir. Bu funktsiya globallashuv jarayonlari tezlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda yana ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Globallashuv faqat iqtisod va siyosat sohasida emas, balki ma'naviyat va mafkura sohasida ham jadallashib bormoqda. Aytish mumkinki, ma'naviyat va mafkura sohasidagi globallashuv boshqa sohalarga nisbatan jadalroq yuz bermoqda. Buning sababi – o'z manfaatlarini ko'zlayotgan ba'zi davlatlar mamlakatimizga mafkuraviy jihatdan zararli va vayronkor ta'sir o'tkazishga urinayotganida.

Ma'naviyat va mafkura sohasidagi o'zaro ta'sir, afsuski, faqat ijobiy tomonlar bilan cheklanmaydi. Bu jarayonda salbiy va vayronkor g'oyalar ham o'z ta'sirini o'tkazmoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham milliy ma'naviyatimizni tahdidlardan himoya qilish borasida milliy istiqlol g'oyasidan kuchliroq va samaraliroq g'oya yo'q. Bu haqda «Milliy istiqlol g'oyasi» darsligida quyidagi fikr bildirilgan: «Ma'naviyatni bir uyga to'plangan boylikka qiyoslasak, tashqaridan kirayotgan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustun qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi. Xuddi shu

kabi, biz ham yot g'oyalar, oqimlar va mafkuralar ma'naviyatimizga vayronkor ta'sir o'tkazishiga qarshi himoya choralari ko'rishimiz tabiiy»². Shu o'rinda milliy g'oyaning yoshlarni tarbiyalash, milliy va ma'naviy o'zlikni himoya jarayonidagi muhim funktsiyasi namoyon bo'ladi. Milliy g'oya va ma'naviyatning ana shu funktsiyasini to'laqonli bajarishida madaniy-ma'rifiy tadbirlar muhim o'rin tutadi. O'quvchi va talabalar ongiga milliy g'oya va mafkurani, ma'naviyatni singdirish bugungi kun ta'lim tizimida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning markazida turibdi. Bu maqsadga erishish yo'lida ta'lim-tarbiyaning turli usul va vositalaridan foydalanilmoqda.

Mamlakatimiz ta'lim tizimida interfaol usullardan foydalanishga katta ahamiyat berilayotgan hozirgi kunda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or o'qituvchilarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or o'qituvchilarning tajribasi shuni ko'rsatadi, madaniy-ma'rifiy tadbirlardan ta'lim jarayonida foydalanish o'quvchi va talabalar faolligini keskin oshiradi. Bundan tashqari, mashg'ulot o'tkazishning roli o'yin, xizmat o'yinlari singari shakllari, asl mohiyatiga ko'ra, madaniy tadbiridir. Chunki ular ta'lim shakllari bilan san'at elementlarining qo'shilib ketishi natijasida vujudga kelgan.

Mashg'ulotlar davomida madaniy-ma'rifiy tadbirlar elementlaridan foydalanish muayyan uslubiyat asosida amalga oshiriladi. Bu holat mazkur tadbirlarni o'tkazishning umumiy xususiyatlari bilan bog'liq.

4-MASHG'ULOT. XALQIMIZNING BOY TARIXI, ILMIY-MADANIY MEROSI, MILLIY-DINIY QADRIYATLARNI O'RGATISH, QATAG'ON QURBONLARINI YOD ETISH ORQALI YOSH AVLODNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH (SAYYOR).

Xalqimiz tarixidagi og'ir va fojiali sahifalarni xolis anglash, millat ravnaqi va ma'naviy taraqqiyoti yo'lida qurbon bo'lgan ziyolilar, ma'rifatparvarlar va jamoat arboblarning hayoti hamda fidoyiligini yoshlar ongiga singdirish. Qatag'on siyosatining oqibatlarini, inson qadr-qimmatini poymol etilgan davr saboqlari, tarixiy adolatni tiklash, xotira va qadrlash madaniyatini shakllantirishning ahamiyati. Qatag'on qurbonlarini yod etish yosh avlodda erkinlik va mustaqillik qadrini chuqur anglash, Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini kuchaytirish, qonun ustuvorligi va inson huquqlariga hurmat ruhini shakllantirish. Yoshlarni tarixiy saboqlar asosida ongli fuqarolik pozitsiyasiga ega, g'oyaviy barqaror, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, mamlakat taraqqiyotiga daxldorlik tuyg'usini his etadigan faol vatanparvar shaxs sifatida tarbiyalash.

Tayanch tushunchalar: xalqimizning boy tarixi, ilmiy-madaniy merosi, milliy-diniy qadriyatlar, qatag'on qurbonlarini yod etish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

Sobiq Ittifoqning tarixiy sahifalarida millionlab fuqarolarning qonlari bilan yozilgan sahifalari mavjud bo'lib, bu mustabid sovet tuzumining qatag'onlik siyosatidir. Stalinch totalitar-mustabid tuzum bedodligi va zulmning haddan ziyod kuchayib borishi davomida nafaqat yurtparvar milliy kadrlar, fidoyi ziyolilarning hayot tarzi, qismati zavol topdi, balki shu bilan birga millionlab yurt fuqarolarining oddiy insoniy qadr-qimmati, or-nomusi toptaldi, tahqirlandi. G'addor tuzum zulmkorlari o'z g'ayriqonuniy xatti-harakatlarini avj oldirib, bunda har bir insonning yurish-turishi, kundalik mashg'uloti, muomalasidan tortib to uning qanday tafakkur yuritishigacha bo'lgan hamma jarayonlarni ham o'z nazoratiga olishga intilganlar. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa insonlar erki, irodasini jilovlash, uni muayyan chegara doirasida ushlab turish va shu yo'l bilan badkirdor tuzum sha'niga dog' tushirmaslik, uning soxta obro'-nufuzini asrash, avaylash edi.

30-yillardagi qatag'onda o'zbek xalqining eng iste'dodli namoyandalari yo'q qilindi. Ularga turli ayblar qo'yilib, har xil bahonalar bilan qatl qilindi. Biroq, sho'ro tuzumini maqtab, "xalqlar otasi" ni kuylagan ayrim shoirlarga ham kun berilmadi. Sababi, ularning beqiyos iste'dod ekanligi, bir kun kelib baribir o'z xalqiga yon bosishini oldindan payqagan qizil imperiyachilar ularni ham otib tashlagan.

Sovetlar o'z siyosatidan sal og'ish, unga zid keluvchi hollarga shafqatsizlik bilan munosabatda bo'lardi. Buning oqibatida kishilar dunyoqarashi, e'tiqodini o'z izmiga bo'ysundirish, uni kommunistik axloq, ilmiy va ateistik tamoyillar ruhida shakllantirish uchun keskin kurash olib borgan sovet mafkurasining respublika mehnatkashlarining ma'naviy hayotiga etkazgan zarari behisob bo'ldi. Shu yo'l bilan xalq ma'naviy-ruhiy hayotiga asrlar osha muhim hissa qo'shib kelgan butun boshliq ruhoniylar tabaqasi yo'q qilindi. Din peshvolari qattiq ta'qibga olindi.

Bu davrda insonni qoralash, uning peshonasiga "xalq dushmani" tamg'asini bosish tuzum zolimlari uchun xuddi "xamirdan qil sug'urganday" gap bo'lgan. Hatto shunday hollarga duch kelindiki, respublikadagi ko'p xonadonlarda vaqti-vaqti bilan o'tkazilgan tintuv paytida mabodo arab yozuvida bosilgan biror kitob topilguday bo'lsa, uning nomi, mazmuni so'rab, surishtirilmasdan o'sha xonadon sohibiga jamiyatga yot unsur degan la'nat tamg'asi bosilib, u qamoq yoki surgun jazosiga hukm etilavergan.

XX asrning 30-yillariga kelib jahon xaritasida mutlaqo qayd etilmagan "Gulag" lagerlari tashkil topdi. Uning fuqarolari haq-huquqsiz Sovet Ittifoqi qahramonlari, mashhur fan arboblari, mohir diplomatlar, shoirlar, yozuvchilar, rassomlar yoki nomlari hech kimga ma'lum bo'lmagan ishchilar, kolxozchilar va

boshqa kasb egallari edi. Bu albatta sovet davlatining qatag'onlik siyosati natijasi edi. Turkiston ozodligi uchun kurashganlarni "Bosmachi" tamg'asi bilan yo'q qilinib tashlandi. So'ng aholini mehnat qilib biror narsa orttirgan o'rta hol qismi bu baloga giriftor etildi.

Mustabid tuzum Markazda va joylarda o'z mutlaq hokimiyatini shakllantirib, mustahkamlab borar ekan, bunda u o'ziga sodiq muayyan siyosiy va ijtimoiy kuchlarga tayanib ish yuritar edi. Shu maqsadda, Markaz hukumati yangi sotsialistik jamiyat qurilishi davomida O'zbekistonga o'zining ko'p sonli sadoqatli xodimlari, vakillarini rahbari Lavozimlarga yuborib turganligi bejiz emas. Xususan, ular yordamida o'lka hayotida kechayotgan barcha jarayonlar, o'zgarishlardan doimiy xabardor bo'lish, ularning yo'nalishlarini, maqsad, vazifalarini belgilash, mahalliy kadrlar faoliyatini kuzatish, nazorat qilish mumkin bo'lardi. Markaz O'zbekistonlik milliy kadrlarning kundalik ishlariga "ko'z-quloq" bo'lish, ular faoliyatini tekshirish, taftish qilish barobarida sotsializm qurilishi yo'lida sadoqat bildirganlarni tanlash, tarbiyalash, ularni yuqori mansablarga ko'tarishni o'z e'tiboridan chetda tutmadi. Markaz ishonchini qozonib, uning nufuzli namoyandalari bilan yaqindan hamkorlik qilgan, kerak bo'lganda-o'z xalqining manfaati, qiziqishlarini ko'zlab ish yuritgan bilimdon kadrlar soni ham ko'payib borgan. Ammo Stalinning yakkahokimligi kuchayib, totalitar tuzum bedodligi avj olib borgan sari bunday kadrlarni arziyasabab va bahonalar bilan qiynoq-qistovga olish, vazifalaridan chetlatish odatiy tusga kirib bordi.

Rahbar kadrlar, ayniqsa, o'z xalqi, yurtining milliy manfaatlarini himoya qilib, uning istiqbolini ko'zlab, o'zida kuch, iroda topib, bor haqiqatni aytishga jur'at qilgan millat vakillari birinchi navbatda hukmron Markaz uyushtirgan qatag'onga duchor bo'ldi. Buning yorqin ifodasini Sovet mafkurachilari tomonidan o'zbek milliy kadrlari sha'nini bulg'ashga qaratilgan, atayin ta'qib chiqarilgan "18 lar guruhi", "Inog'omovchilar", "Qosimovchilar" guruhlar misolida ko'rish mumkin. Ularning faoliyatiga oid tarixiy hujjatlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, bu insonlar faoliyatida ularni ayblashga bois bo'ladigan hech bir asosli ashyoviy dalillar bo'lmaganligiga to'la amin bo'lamiz. Ularning yagona "gunohi" – bu o'z millati dardi, tashvishi va manfaatini ko'zlab ayrim muhim muammolarni ko'targanligi va ularni hal etishga yuqorining e'tiborini jalb etganligi xolos.

Respublikaning taniqli arboblardan iborat "18 lar guruhi"ga "yer-suv islohotiga qarshi chiqqan, boy-quloq va yer egalarining manfaatini himoya qilib chiqqanlar, mahalliychilik va millatchilik g'oyalarini ilgari surgan" degan soxta aybnoma qo'yildi. Aslida esa ular hukmron Markazning ulug' davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydligiga qarshi chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilganlar. Shu sababli, rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralanadi va uning a'zolari turli

jazolarga giriftor etildilar. Bunday muxolifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan qolmasdi, albatta. Shu sababli, 1926-1927-yillarda bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarida bir necha bor muhokama qilinib, og'machi guruhbozlikda ayblandi. Inog'omov tarafdorlari vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi.

“Qosimovchilik” guruhi ham 1929-1930-yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatag'on qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma edi. O'z SSR Oliy Sudining raisi lavozimida ishlagan S. Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari: N.Alimov, Musaboyev, Sharipov, Sirojiddinov va boshqa-jami 7 kishi 1929-yilning 2-yarmida “bosmachilik” harakatiga yordam berganlikda ayblanib qamoqqa olindilar. Ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bog'laganlikda ayblandilar. Bu guruhning 4 ta a'zosi shunday asossiz ayblanib, otib tashlandi. Qolganlari esa ko'p yillik qamoq jazosiga hukm qilindi.

Mustabid tuzum hukmdorlari uchun O'zbekiston singari milliy Sovet Respublikasi rahbarlari, xodimlarini to'la itoatda tutishning birdan bir sharti – bu ularning mustaqil faoliyatiga izn bermaslik, vaqti-vaqti bilan silkitib turish, mabodo xato, kamchiliklari topilguday bo'lsa, shafqatsiz jazolash yo'li edi. Milliy kadrlar faoliyatiga nisbatan bunday noinsoniy, g'ayriqonuniy yondashuv oqibatida respublikada o'z ongli hayoti, jo'shqin faoliyatini sovetlarning yolg'on, soxta g'oyalari, sotsializm g'alabasi uchun bag'ishlagan, shu yo'lda jon fido etib kurashgan qancha yetuk partiya va davlat rahbarlari qatag'on domiga g'arq bo'ldilar. O'zbekiston ravnaqi, xalqining baxt-u saodati uchun fidoyilik ko'rsatgan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulla Rahimboyev, Isroil Ortiqov, Abdulla Karimov va boshqa o'nlab mahalliy rahbar kadrlarning qismati mana shunday fojia bilan tugadi.

Mustabid tuzum hukmdorlari va ularning chaqqon dastyorlarning yeng shimarib qilgan “sa'y-harakatlari” natijasida 1937-1938-yillar davomida O'zbekistonda bir qator yirik aksilinqilobiy tuzilmalar tuzilgan, faoliyat yuritmoqda, degan soxta ma'lumotlar to'plandi. Mana shunday soxta ma'lumotlar asosida respublika rahbarlari A.Ikromov va F.Xo'jayev boshchiligidagi “Burjua-millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi”, Abdurauf Qoriyev rahbar bo'lgan “Musulmon ruhoniylarning millatchi-isyonkor tashkiloti”, “Aksilinqilobiy o'ng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi”, “Buxoro va Turkiston baxt-saodati” nomli aksilinqilobiy tashkiloti, I.Ortiqov boshliq Yoshlarning aksilinqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti”, “Ingliz josuslik rezidenturasi”, “Yapon josuslik-qo'poruvchilik rezidenturasi” kabi tashkilotlar Sovet hokimiyatiga qarshi faoliyat yuritmoqda deb e'lon qilindi, ularni tuzishda gumon qilinganlar qatag'on qilindi.

Eng so‘nggi ma’lumotlar, tarixiy hujjatlarni har tomonlama o‘rganish, tahlil qilishlar, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublikada umuman bo‘lmaganligini to‘la tasdiqlamoqda. Demak, bunday aksilinqilobiy tashkilotlar qatag‘on tuzumi buyurtmasi asosida Markaz va uning jazo organlari tomonidan atayin to‘qib chiqarilgan va hayotga izchil tatbiq etilgan. Buning orqasida ming-minglab begunoh insonlar shafqatsiz jazolangan, umrlari xazon bo‘lgan. XX asr boshidan 40-yillargacha 450 ming vatandoshlarimizga nisbatan “jinoiy ish” ochilganligi, ularning hayoti ostin-ustun bo‘lib ketganligi faktdir.

Faqat 1937-1939- yillarda O‘zbekistonda hammasi bo‘lib 43 mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan. Ulardan 6 ming 920 nafari otib tashlangan. 37 ming nafari esa turli muddatga qamoq va surgunlarga hukm etilgan.

Mustabid tuzum jallodlarining bu bedodligini hech narsa bilan oqlab bo‘lmaydi. Yaqin milliy tariximizning bu qorong‘u zulmati xalqimiz dilida mangu o‘chmas armon bo‘lib qoldi. U faqat milliy istiqlol tufayligina to‘la yuzaga chiqib, bundan yurtimiz fuqarolari chinakam ro‘shnolik ko‘rish baxtiga musharraf bo‘ldilar.

Stalincha siyosiy qatag‘ondan jamiyatning sog‘lom kuchlari, milliy ziyolilar eng ko‘p aziyat chekdi, mislsiz qurbonlar berdi. Negaki, totalitar rejim mutasaddilari o‘zlari jaholatparast kimsalar bo‘lganligidan, ilm-u ma’rifat, ziyo ahlini qadrlash, e’zozlash o‘rniga ularni xo‘rlash, tahqirlash, kerak bo‘lsa, yo‘q qilishni o‘zlariga kasb qilib olgandilar. Masalan, butun hayoti va ijodini millat baxt-saodati, yurt istiqboli uchun bag‘ishlagan Munavvar qori shu davrda avj olgan sovetlar ig‘vosi va bo‘htonining aybsiz qurboni bo‘ldi. Uning rahnamoligida millat ravnaqi va istiqloli yo‘lida faoliyat yuritgan, xalqqa ziyo taratib kelgan “Milliy istiqlol” tashkilotining 87 a’zosi ustidan sud uyushtirildi. Ularning 49 nafari “Xalq dushmani”, “burjua millatchisi” degan ayblar bilan qoralanib, og‘ir jazolarga hukm qilindi.

O‘zbek adabiyotining ustunlari bo‘lgan, noyob ijodlari xalq mehrini qozongan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Usmon Nosir, Mahmud Botu (Xodiyev), Elbek (Mashriq Yunusov), G‘ozi Yunus kabi ajoyib iste’dodlar quruq bo‘hton-u tuhmatlar asosida “xalq dushmanlari” sifatida jismonan yo‘q qilinib, yorqin faoliyati so‘ndirildi.

Masalan, ulardan biri – professor G‘ozi Olim Yunusovni oladigan bo‘lsak, u 50 dan ziyod asarlar muallifi edi. Arab, fors, nemis, ingliz va barcha turkiy tillarni puxta bilardi. U hatto rus, arab va nemis tillarida Samarqand universiteti, Toshkent pedagogika instituti hamda Til va adabiyot ilmiy-tadqiqot institutida umumiy tilshunoslik va til bilimiga kirish kabi maxsus kurslardan ma’ruzalar o‘qirdi. Biroq bunday iste’dodlar qatag‘on jallodlari uchun sariq chaqalik qadr-qimmatga ega bo‘lmagan. Mustabid tuzum farmonbardorlari, ayniqsa, bunda o‘zbek xalqining milliy ongi, tafakkurini yoritish, uning o‘zligini tanitishga fidoyilik qilgan, jadidizm

namoyandalarini yo‘q qilishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Ming afsuslar bo‘lsinki, bunga erishdilar ham.

O‘zbekiston hukumatining tashabbusi va sa’y-harakati bilan 20-yillarda xorijga o‘qishga yuborilib, yaxshi mutaxassislar, fan arboblari bo‘lib yetishgan kishilar atayin qatag‘on qurbonlari bo‘ldilar. Agar Germaniya yoki Turkiyada ta’lim olgan bo‘lsalar ularga o‘sha mamlakatlarning josuslari degan ayb qo‘yildi. Buning uchun ularning uyida tintuv paytida chet elda bosilgan kitob topilguday bo‘lsa, shuning o‘zi yetarli dalil edi. Axir ular chet el oliy o‘quv yurtlarida o‘qigan bo‘lsalar, ularda shunday kitoblar bo‘lishi tabiiy edi. Masalaning bunday mantiqiy jihatlari chalasavod jazo organlari vakillarini qiziqtirmagan. Xorijda ta’lim olib, professorlik unvoniga sazovor bo‘lgan Ahmadjon Ibrohimov, Majid Ibrohim, Ibrohim Yorqin, Tohir Shokir, Abduvahob Ishoq, Said Shermuhammad qizi, Sattor Jabbor, Otajon Hoshim va boshqalar o‘sha davrlarda millat faxri bo‘lganlar. Ularga ham “xalq dushmani”, “chet el josusi” qabilidagi tavqi la’nat tamg‘asi bosilib, qatl etildilar.

Bu davrda insonni qoralash, uning peshonasiga “xalq dushmani” tamg‘asini bosish tuzum zolimlari uchun xuddi “xamirdan qil sug‘urganday” gap bo‘lgan. Hatto shunday hollarga duch kelindiki, respublikadagi ko‘p xonadonlarda vaqti-vaqti bilan o‘tkazilgan tintuv paytida mabodo arab yozuvida bosilgan biror kitob topilguday bo‘lsa, uning nomi, mazmuni so‘rab, surishtirilmasdan o‘sha xonadon sohibiga jamiyatga yot unsur degan la’nat tamg‘asi bosilib, u qamoq yoki surgun jazosiga hukm etilgan.

Shunday qilib, stalincha qatag‘on respublikamiz hayotining barcha sohalari uchun qonli fojialar, beadam yo‘qotishlar bilan to‘lib toshgan davr bo‘ldi. U millionlab odamlarning taqdir-qismatida asoratli iz qoldirdi va mislsiz xunuk oqibatlarni yuzaga keltirdi. Shunga qaramay, xalqimiz bukilmas irodasini, matonatini namoyon etib, yorug‘, charog‘on kunlar kelishiga intilib, kurashib yashadi. U stalincha har qanday shiddatiga dosh berib, o‘z asriy qadriyatlarini, udumlari, rasm-rusumlarini saqlab, imon-e’tiqodiga sodiq qoldi va hamisha milliy istiqlol sari dadil harakatlanishda davom etdi.

Qariyb 130 yillik mustamlakachilik yillarida turli sohalarda qilingan juda ham yomon ishlar va hodisalar turli shakllarda yuz bergan. Qatag‘onlar, mahv etishlar, otib tashlashlar xalq ruhiyatini sindirdi. Odamlar bu mislsiz qirg‘inlar natijasida bir umr tahlika va qo‘rquv bilan yashadi. Ana shu hadiksirash millat hayotini zaharladi. Turmush lazzatini, yashash zavqini zaqqumga aylantirdi. Qo‘lga kiritilgan mustaqillik ana shunday iztiroblarga, qon yutishlar iskanjasida qolgan xalqimiz qalbiga nur, umidlariga qanot, dardlariga malham bo‘ldi.

Butun borlig‘idan, ma’naviy bisotidan judo qilingan xalq erkinlik tufayli katta tashnalik bilan o‘z tarixini bilishga intilmoqda. Sho‘ro hukumati davrida ongli ravishda madaniy boyliklarimiz yo‘q qilingan.

Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta'minlash yo'lida mardona kurash olib borib aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag'on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o'rganish hamda targ'ib etish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, o'tgan davrda ushbu yo'nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Yurtimizda 2001-yildan buyon har yili 31-avgust — "Qatag'on qurbonlarini yod etish kuni" sifatida keng nishonlab kelinmoqda. "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasi barpo etildi. "Shahidlar xotirasi" jamoat fondi, Qatag'on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta'lim muassasalari qoshida uning bo'limlari tashkil etildi.

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Is'hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy kabi ulug' ma'rifatparvar ajdodlarimiz xotirasiga bag'ishlangan muhtasham haykallar, muzeylar bunyod etildi, ijod maktablari faoliyati yo'lga qo'yildi. Siyosiy qatag'on yillarida nohaq qurbon bo'lgan yurtdoshlarimizning nomlarini aniqlash, ularning qoldirgan merosini o'rganish va keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, badiiy va hujjatli asarlar yaratilmoqda.

Dunyoda global xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hamda milliy o'zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag'on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san'at, adabiyot namoyandalarining, oddiy kasb egasi bo'lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodimizni Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Bu boradagi tarixiy ma'lumotlarni xolis va haqqoniy o'rganish mamlakatimiz mustaqilligi qanday og'ir va mashaqqatli kurashlar bilan qo'lga kiritilganini, bugungi erkin, ozod va obod hayotimizni asrab-avaylab, qadrlab yashash kerakligini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

8. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi

ma'ruza, 2017 yil 14 yanvar. – T.: «O‘zbekiston», 2017.-104 b.

9. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

10. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 13 iyundagi “Qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash – barcha ezgu ma'isadlarimizga erishishning eng muhim sharti” mavzusidagi ma'ruzasidan [http://uza.uz/oz/politics/qonun va adolat-ustuvorligini taminlash-barcha-ezgu-ma-sadlar-13-06-2017?sphrase_id=2579526](http://uza.uz/oz/politics/qonun_va_adolat-ustuvorligini_taminlash-barcha-ezgu-ma-sadlar-13-06-2017?sphrase_id=2579526).

12. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2022. – 416 b.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. 2025 yil 23-sentyabr.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025 yil, 26 dekabr.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. — T.: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23

sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 797-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-4477-sonli Qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 17 fevraldagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-4996-sonli Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo’lga qo’yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-14-sonli Farmoni.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to’g’risida”gi PF-158-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimlarini uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-228-sonli Qarori.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-yuldagi “Siyosiy qatag‘on qurboni bo’lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o’rganish, targ‘ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to’g’risida”gi PQ-270-sonli Qarori.
17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 4-noyabrdagi “2025-2026 yillarda mamlakatimizda Qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini targ‘ib etish ishlarini yanada jadallashtirish bo’yicha chora-tadbirlarni tasdiqlash to’g’risida”gi 691-sonli Qarori.

III. Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.lex.uz>
2. <http://www.norma.uz>
3. <http://www.gov.uz>
4. [http:// www.strategy.uz](http://www.strategy.uz)
5. <https://president.uz>
6. <http:// www.edu.uz>

VII. NAZORAT SAVOLLARI

1	2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi qaysi tamoyilga asoslanib ishlab chiqilgan?
2	Davlat organlarida ish yurituvini raqamlashtirish orqali ma'muriy tartib-taomillarni optimallashtirish va boshqaruv jarayonini avtomatlashtirish qaysi loyiha asosida amalga oshirish belgilangan?
3	"Xalqparvar davlat" milliy dasturi amalga tatbiq etish qaysi g'oya asosida ishlab chiqilgan?
4	"Norma ijodkorligi jarayonini modernizatsiya qilish, qonunchilik hujjatlarining qat'iy ijrosini ta'minlash" maqsadi bo'yicha qanday konsepsiyani ishlab chiqilishi belgilangan?
5	"Legal Tech" platformasi nma?
6	Taraqqiyot strategiyasining "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" nomli 3-yo'nalishi nechta maqsadni o'z ichiga oladi?
7	Taraqqiyot strategiyasida aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha hududlarda birlamchi tibbiy xizmati qanday tamoyil asosida yo'lga qo'yish belgilangan?
8	Har bir tuman budjetining necha foizini "Fuqarolar budjeti" dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish belgilangan?
9	Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan nechta Prezident qarori qabul qilindi?
10	Taraqqiyot strategiyasiga ko'ra davlat qarzini boshqarishda yangi jalb qilingan tashqi qarz miqdori yiliga qancha bo'lishi belgilangan?
11	Taraqqiyot strategiyasiga muvofiq qishloq xo'jaligi mashinasozligi ishlab chiqarishini yagona sanoat klasteri usulida tashkil etish qaysi shaharda amalga oshiriladi?
12	Taraqqiyot strategiyasining 6-yo'nalishi qanday nomlanadi?
13	Ta'lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo'llash orqali qaysi ta'lim muassasasini ma'naviyat va ma'rifat, madaniyat o'chog'iga aylantirish nazarda tutilgan?
14	Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish bu?
15	Global innovatsion indeksda O'zbekiston Respublikasining o'rnini yaxshilash va 2030-yilga qadar qanday reyting qatoriga kirish rejalashtirilgan?

16	Ma'naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish qaysi ustuvor yo'nalish maqsadlarida belgilangan?
17	Inson kapitali nima?
18	"Yashil iqtisodiyot" bu?
19	Ijtimoiy sheriklik bu?
20	2023 yil 11 sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. Strategiyada nechta ustuvor yo'nalish bor?
21	Adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirishning ustuvor yo'nalishlarida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni ko'rsating?
22	2023 moliya yilidan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar qanday tartibda shakllantirilishi belgilangan?
23	Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni ko'rsating?
24	Qaysi me'yoriy-huquqiy hujjat asosida Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagogika yo'nalishi bo'yicha o'quv dasturlarni ishlab chiqishda yetakchi oliy ta'lim muassasasi etib belgilangan?
25	Yoshlar bilan ishlashning "mahalla-sektor-tuman (shahar)-hudud-respublika" tizimi qaysi me'yoriy-huquqiy hujjatga asosan joriy etildi?
26	"2022-2026-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi VM-qaroriga ko'ra Orolbo'yi mintaqasining ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada oshirish bo'yicha qanday dastur amalga oshirilmoqda?
27	Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish sohasidagi ustuvor yo'nalishlarda amalga oshirilgan chora-tadbirlarni ko'rsating
28	Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish bo'yicha 2030-yilgacha bo'lgan davrda ustuvor yo'nalishlarni va kompleks chora-tadbirlarni belgilab bergan normativ-huquqiy hujjat qanday nomlanadi?
29	Strategiya tushunchasi ma'nosi?
30	Ma'naviyat bu?
31	Konstitutsiya so'zi qanday ma'noni anglatadi?
32	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida "O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi taqiqlanadi" normasi belgilangan?

33	Jamoat birlashmalariga nimalar kiradi?
34	Jamoat birlashmasi deb nimaga aytiladi?
35	Fuqarolik jamiyati ta'rifi to'g'ri keltirilgan javobni ko'rsating?
36	O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot qaysi prinsip asosida rivojlanadi?
37	Turli ijtimoiy tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o'zlarining demokratik yo'l bilan saylab qo'yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadigan fuqarolik jamiyati instituti qaysi?
38	O'zbekiston xalqi nomidan faqat kim ish olib borishi mumkin?
39	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini kredit-modul tizimiga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlantirish bo'yicha yangi tizim qaysi viloyatlarda tajriba va sinovdan o'tkazildi?
40	Jamoatchilik nazorati subektlari bu...?
41	"Xavfsiz va tinchliksevar davlat" tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish "O'zbekiston — 2030" Strategiyasining nechinchi ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan?
42	"Miranda qoidasi" bu?
43	"Habeas corpus nima?
44	"Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart". O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 27-modda. Ushbu qoida xalqaro huquqda qanday ataladi?
45	Yoshlarning bandligini ta'minlash, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va salomatligini saqlash, fan, ta'lim, madaniyat va sport sohasini takomillashtirish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish maqsadlariga qaratilgan yo`nalish -?